

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
BOSHLANG'ICH TA'LIM METODIKASI
KAFEDRASI.

QO'CHQOROV BAHODIR ABDULLAJONOVICH

O'QISH DARSLARIDA
O'QUVCHILARGA MILLIY ISTIQLOL
G'OYASINI SINGDIRISH

USLUBIY QO'LLANMA

Namangan 2020

Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'qish darslari asosiy o'rin egallaydi. Ana shu o'qish darslarida o'quvchilarga milliy istiqlol g'oyasini singdirish haqidagi asarlarni o'rganish yosh avlod ongida o'z yurtidan faxrlanish, g'ururlanish, yurtga sadoqat, vatanparvarlik kabi tuyg'ularni shakllanishiga, ona vatanimiz haqidagi haqiqiy tarixni bilishlariga yaqindan yordam beradi. Ushbu uslubiy qo'llanmadan boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari, boshlang'ich ta'lim yo'nalishi magistrarlari, boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari keng foydalanishlari mumkin.

Mas'ul muharrir:

N. Uluxujayev
pedagogika fanlar nomzodi, dotsent

Taqrizchilar:

Sh. Xujamberdiyeva
Maktabgacha ta'lim metodikasi
kafedrası o'qituvchisi, PhD.

B.Abdurahmonov katta o'qituvchi,
Maktabgacha ta'lim metodikasi
kafedrası o'qituvchisi, PhD.

Uslubiy qo'llanma Namangan davlat universiteti o'quv – uslubiy kengashining 2020-yil ____ _____dagi _____ sonli yig'ilishida muxokama qilinib nashrga tavsiya etilgan.

B.Qo'chqarov

O'qish darslarida o'quvchilarga milliy istiqlol g'oyasini singdirish
(uslubiy qo'llanma) – Namangan, 2020

SO'Z BOSHI

Ona vatanimiz O'zbekiston mustaqillik yo'liga kirishi bilan tariximiz tiklanmoqda, urf-odatlarimiz qaytadan shakllanmoqda, qaddimiz rostlanmoqda. O'zbeklar ham hamma millatlar kabi o'zligini tanish, rivojlanish yo'lidan bormoqda.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'qish darslari asosiy o'rin egallaydi. Ana shu o'qish darslarida o'quvchilarga milliy istiqlol g'oyasini singdirish haqidagi asarlarni o'rganish yosh avlod ongida o'z yurtidan faxrlanish, g'ururlanish, yurtga sadoqat, vatanparvarlik kabi tuyg'ularni shakllanishiga, ona vatanimiz haqidagi haqiqiy tarixni bilishlariga yaqindan yordam beradi.

Mazkur uslubiy qo'llanma o'quvchilarga milliy istiqlol g'oyasini singdirish haqidagi asarlarni o'rganish usullariga to'xtalib, ushbu maqsad yo'lida avvalo, didaktik o'yin va materiallardan foydalanish yo'llarini ko'rsatib o'tildi. Didaktik o'yin va materiallardan foydalanish o'quvchilar uchun juda qiziqarli bo'ladi. Chunki o'yin bu bola uchun ham mehnat, ham o'qishdir.

O'qish darslarida o'quvchilarga milliy istiqlol g'oyasini singdirish haqidagi asarlarni o'rganishda zamonaviy pedagogig texnologiyaning bir turi bo'lgan interfaol metodlardan foydalanish yo'llarini ham ko'rsatib berishga harakat qildik.

Bundan tashqari o'quvchilarga milliy istiqlol g'oyasini singdirish haqidagi asarlarni o'rganishda, turli musiqali badiiy kechalar uyushtirish, sahna ko'rinishlarini o'quvchilar ishtirokida sahnalashtirish juda yaxshi samara beradi. Chunki bolalar bayramlarni juda yaxshi ko'rishadi, bundan tashqari ular bevosita bu bayramlarni ishtirokchisi bo'lishgan, uylarida nishonlashgan.

Mazkur uslubiy qo'llanmadan boshlang'ich sinf o'qituvchilari keng foydalanishlari mumkin.

I bob. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy istiqlol g'oyasi ruhida tarbiyalash

1.1. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ga milliy istiqlol g'oyasi ni sing'dirishning maqsad va vazifalari.

Vatanimiz mustaqilligi bugun bizga ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot qurishdek buyuk maqsadni amalga oshirishda qatnashish vatanparvarlik burchimiz ekanligini, bunday ezgu maqsadga erishishda g'oyaviy tarbiyaning samarali vosita va usullarini ishlab chiqish, amaliyotda joriy etish har qachongidan ham zarurligini ta'kidlamoqda. Shu sababli mazkur milliy g'oyani bolalar ongiga hali ular o'quvchilik chog'idanoq chuqur singdirish va ularni targ'ibot qilishga tayyorlashning ilmiy asoslarini yoritishni maqsad qilib qo'ydik.

Ma'lumki, milliy g'oya haqidagi tasavvurlar tasodifan paydo bo'lgan emas. Bunda tarixiy, ilmiy, ma'rifiy, ijtimoiy, siyosiy asoslarga ega bo'lgan yagona ilmiy nazariya bor. Mamlakatimiz birinchi prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" asarida ta'kidlaganidek, "Milliy g'oya deganda, ajdodlardan avlodlarga o'tib asrlar davomida e'zozlab kelinayotgan, shu yurtda yashayotgan har bir inson va butun bir xalqning qalbida chuqur ildiz otib, uning ma'naviy ehtiyoji va hayot talabiga aylanib ketgan, ta'bir joiz bo'lsa, har qaysi millatning ezgu orzu-intilishi va umid-maqsadlarini o'zimoizda tasavvur qiladigan bo'lsak, o'ylaymanki, bunday keng ma'noli tushunchaning mazmun-mohiyatini ifoda qilgan bo'lamiz. Bunday fikr yoxud maqsadni tarannum etishda, ularni yoshlar ongi va qalbiga singdirishda "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillari o'quv fanini joriy etish ayni muddao bo'ldi. Ta'lim- tarbiya muassasalarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchilar bugungi kunda kelajagimiz bo'lmish barkamol avlod tarbiyasida, ayniqsa ularga milliy g'oyani o'rgatishda quyidagilarga alohida e'tibor bermog'i lozim:

— Milliy g'oyani targ'ibot qilishning ilg'or zamonaviy usublardan foydalanish va ularni yoshlar ongiga ta'sirini nazorat qilish;

— Milliy go'yani targ'ib qilishda tevarak-atrofdan amaliy misollar keltirib, bahs-munozara tarzida olib borish va suhbat oxirida ularda shakllangan bilimlarni eshitish hamda baholash;

— O'qituvchi va o'quvchi o'rtasida o'tkazilayotgan mashg'ulot jarayonida o'zaro hamfikrlikni o'rnatish, ommaviy axborot vositalaridan tarqalayotgan dunyoning muhim voqealaridan xabardor bo'lgan holda, iloji bo'lsa internet tarmog'idan olingan ma'lumotlar asosida ta'lim-tarbiyani kuchaytirish va g'oyaviy bo'shliqqa yo'l qo'ymaslik;

— Teavrak-atrofimizdagi voqealar bayonida o'quvchilarga bunyodkor va vayronkor g'oyalarning jamiyat taraqqiyotiga salbiy va ijobiy ta'sirlarini singdirish va shu bilan birga ular ongida insoniylik hislatlarining shakllanganligini (anketa, savol-javob, insho yozish, taniqli olimlar bilan uchrashuv o'tkazish va shu kabilar) aniqlash;

— O'quvchilar qalbi va ongiga milliy g'oyada aks ettirilgan bosh va asosiy g'oyalarning insonparvar g'oyalar ekanligini yetkaza bilish, shu asosda mustaqilligimizni avaylab-asrash va mustahkamlash Vatan oldidagi oliy maqsadimiz va burchimiz ekanligini uqtirishimiz kerak.

O'quv darsida milliy g'oyaning asosiy maqsadi esa birinchidan, xalqimizni buyuk kelajakka ishonch va ulug'vor maqsadlar sari birlashtirish, ikkinchidan, jonajon vatanimizda yashovchi har bir insonni, ularning tili, dini, millatidan qat'iy nazar, yagona maqsad, Vatan baxt-saodati yo'lida vijdonan xizmat qilishga yo'naltirish; uchinchidan, boy o'tmish me'rosimizga, ya'ni ulug' ajdodlarimizga munosib vorislar bo'lish; to'rtinchidan, milliy qadriyatlarimiz va an'analarimizga doimiy hurmatda bo'lishga erishish va nihoyat, beshinchidan, yuksak fazilatli barkamol avlodni tarbiyalash va ularni bunyodkorlik ishlariga jalb qilishdan iboratdir.

Ota-bobolarimiz bunyodkor g'oyalar ila barkamol avlod tarbiyasiga doimo ahamiyat berib kelganlarining guvohi bo'lamiz. Ular orasida ona zaminimizda yashab o'tgan arboblarning, qomusiy va hadisshunos olimlarimizning ham xizmatlari alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa, mustaqilligimizning dastlabki

kunlaridan boshlab barkamol avlod tarbiyasiga, ularning ma'naviy qarashiga e'tibor berib kelinmoqda. Jumladan, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning qabul qilinishi, ta'lim tizimiga "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" o'quv fanining kiritilishi, maktablarda "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslarining o'qitilishi va amalga keng joriy etilishi fikrimizning isbotidir. Vatanimiz mafkurasi, xalqimizning asosiy maqsadi va ezgu tilaklarini ifodalaydigan, xalqlar tarixini uning kelajagi bilan bog'laydigan buyuk g'oyaviy qurolimizdir. Shu sababli milliy g'oyani ota-bobolarimizning qanchadan-qancha qon to'kishlari va boshqa turli say harakatlari tufayli qo'lga kiritilganligini yoshlar qalbi va ongiga singdirish, ularni turli reaksiya oqimlar va guruhlarga qo'shib ketishidan saqlab qolishda barcha fan o'qituvchilari, ishchi va xodimlar, shuningdek, mahalla faollari va jamoalar ham mas'ul bo'lishlari kerak.

Vatanimiz birinchi prezidenti Islom Karimov 2006-yil 25-avgustda imzolagan 451-sonli qarorida belgilab berganidek, "Bugungi kunda amalga oshirilayotgan davlat siyosatining ustuvor yonalishlari, keng ko'lamli islohotlarning mohiyati, qabul qilingan qonun hujjatlari va davlat dasturlarining ahamiyati atroflicha sharhlashi va tushuntirishi, yurtimizga qarshi qaratilgan g'oyaviy va informatsion xurujlar, ularning ortida turgan kuchlarning maqsadini fosh qilish, odamlarni hushyorlik va ogohlikka da'vat etish, olimlar, siyosatchi va mutaxassislar, ijodkor ziyolilar ishtirokida joylarda samarali targ'ibot tizimini yo'lga qo'yish" vazifa qilib belgilangan.

Barkamol avlod - jamiyat taraqqiyotining asosi. Shu bois mamlakatimizda ham jismonan, ham ma'nan barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatiga ko'tarilgan.

Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov: "...biz o'z kuchi va immunitetlariga tayanadigan, atrofida sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondoshadigan, ayni zamonda shaxsiy manfaaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan erkin, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalashimiz kerak" – deb ta'kidlagan edi.

Respublikamiz hukumati tomonidan mustaqillikning dastlabki yillaridanoq yoshlarga qaratilayotgan e'tibor davlat siyosatining muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralib, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, mustaqil fikrlaydigan zamonaviy mutaxassislarni yetishtirish hamda jismonan baquvvat, iymon-e'tiqodi butun, bilimli, mard, jasur, vatanparvar, ma'naviyati yuksak, milliy g'oyani o'zida mujassam etgan shaxsni shakllantirishga e'tibor berila boshladi. Bu boradagi ishlarni aniq maqsadli amalga oshirish uchun davlat ahamiyatiga molik hujjatlar qabul qilinib, dasturlar ishlab chiqildi.

Ulardan ko'zlangan maqsad yoshlarning ijtimoiy shakllanishi va kamol topishi, yoshlarimizga ta'lim-tarbiya berish, kasb-hunarga o'rgatish, ularni ish bilan ta'minlash, sog'lig'ini asrab-avaylash, ma'naviyatini yuksaltirish, qobiliyatini va madaniyatini rivojlantirish hamda jamiyat manfaatlari yo'lida xizmat qiladigan barkamol avlodni tarbiyalash uchun sharoitlar yaratishdan iborat.

Xo'sh, barkamollik, barkamol shaxs, barkamol avlod tushunchalari nima? Ular qanday shakllanadi?

O'zbek tilining izohli lug'atida hamda pedagogika fanidan izohli lug'atda barkamollik – kamolotga erishgan, kamol topgan, yetuk, kamchiliksiz, barkamol inson, barkamollik – jismoniy va aqliy jihatdan kamolga erishgan, yetuklik, mukammallik holati. “Barkamol avlod – erkin fikrlovchi, o'z xalqi uchun kurashuvchi, hur fikrliva istiqlol g'oyalari bilan sug'orilgan, o'z vataniga fidoiylik bilan xizmat qiluvchi, tadbirkor va tashabbuskor ozod shaxsdir”,-deya ta'rif berilgan.

Barkamol avlod deganda, avvalo, jismonan baquvvat, iymon-e'tiqodi butun bilimli, ma'naviyati yuksak, mard va jasur, vatanparvar avlod tushuniladi.

Bizningcha ham barkamol avlod, yuksak aql egasi, mustaqil fikrlay oladigan, milliy g'oyaning tub ma'no mazmunini anglab yetadigan va ularga sodiq bo'ladigan, dunyoqarashi keng, sog'lom fikrli, xalqi, mahallasi, oilasi tinchligiuchun jonini fido etishga tayyor turuvchi, o'z vatani dovrug'ining jahon uzra keng yoyadigan haqiqiy fidokor shaxsdir.

Milliy g'oya birinchidan, o'zligimizni, milliylikimizni anglashga, ajdodlarimizning boy tarixiy me'rosi va an'analarimizni bilishga, xalqimizning asrlar davomida shakllangan ezgu niyatlarini, bugungi kunda jamiyatimiz ezgu niyatlarini bugungi kunda jamiyatimiz oldiga qo'ygan oily maqsad va vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan bo'lishi shart.

Ikkinchidan, bugungi kunda jamiyatimizda mavjud bo'lgan xilma-xil fikr va g'oyalar, erkin qarashlari va har qanday insonning e'tiqodi hamda dunyoqarashidan qat'iy nazar, ularning barchasini yagona maqsad sari yetaklaydigan xalqimizning va davlatimizning daxlsizligini asraydigan yagona g'oya bo'lishi kerak.

Uchinchidan, milliy g'oya har qanday millatchilik unsurlaridan, boshhqa xalq va elatlarni mensimaslik, ularni kamsitishlardan xoli bo'lib, qo'shni davlat va xalqlar, umuman, jahon hamjamiyatida o'ziga hos poydevor bo'lishi zarur.

To'rtinchidan, milliy g'oya, birinchi navbatda, o'z avlodlarini vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat ruhida tarbiyalashi, ularning qalbida odamiylik va insonparvarlik fazilatlarini shakllantirishi zarur.

Beshinchidan, milliy g'oya xalqimizning shonli o'tmishi va buyuk kelajagini uzviy bog'lab turishga, o'zimizni o'zimizning ulug'ajdodlarimiz boqiy me'rosining munosib vorisi deb bilishga, jahonning umumbashariy yutuqlariga erishish uchun yo'l ochib beradigan maqsadlarga muvofiq g'oya bo'lishi kerak.

Milliy g'oya har bir xalqning milliy mustaqilligini mustahkamlashga, milliy g'urur, milliy iftixor, milliy tuyg'ularini shakllantirishga, sog'lom fikrli milliy qadriyatlarimizga sodiq, barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilmog'i lozim. Bu jarayonda milliy g'oya tayanch nuqtasi hisoblanadi. Bugungi kunda eng dolzarb vazifa ta'lim-tarbiya jarayonida milliy g'oyani yoshlar qalbi va onggiga singdirishdir.

Darhaqiqat, hozirgi globallashuv sharoitida yoshlarimiz oldiga qo'yilayotgan talablar yuksak hamda mas'uliyatlidir. Farzanlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lishlarini orzu qilayotgan, barcha intilishlarimizni shu

maqsadga yo'naltirgan ekanmiz buning uchun birinchi galda, ma'naviy tarbiya beradigan milliy g'oya masalasiga katta ahamiyat bermog'imiz asosiy vazifadir.

Endilikda oldimizda turgan muhim vazifa – ana shu yuksak tushunchalarni yoshlarimiz ongiga singdirish bilan birga, mamlakatimiz tarixida o'zlarining boy ma'naviy me'roslari bilan munosib hissa qo'shgan al-Xorazmiy, al-Beruniy, al-Farobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek kabi buyuk ajdodlarimizning komil insonni tarbiyalash to'g'risidagi g'oyalarini o'rganish, o'zining bunyodkorlik ishlari, dunyoda adolat o'rnatishni o'ziga qat'iy niyat qilgan ulug' sarkarda Amir Temurning ona Turonzaminimizni mo'g'ul bosqinchilaridan ozod qilishi, Oltin O'rdani tor-mor etishi va Yevropani turklar zulmidan qutqarib, olamshumul ishlarni olib borishi, o'zining ma'naviyati va mardligi, vatani va xalqi mustaqilligi uchun jonini fido qilishga tayyor turgan Jaloliddin Manguberdining nomi chingizxon boshliq mo'g'ul istilochilari yuragiga vahm solishi hamda shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning yoshlik davridan taxtga o'tirib, mamlakatni adolatli boshqarishi va davlatchilik siyosatlarini odilona olib borishi, dunylararo bag'rikenglik, millatlararo totuvlik g'oyalarini targ'ib etishi to'g'risidagi g'oyalarni o'rganish ulardan shakllangan barkamol avlod tarbiyasida o'z ixtisosligi bo'yicha jahon talablariga javob beruvchi, rivojlangan demokratik davlatlardagidek mutaxassis, zamonaviy texnika va texnologiyalarni puxta o'zlashtirgan, yuksak ma'naviyatli va axloqiy yetuk insonlar qilib tarbiyalash bilan birgalikda, yoshlarda:

- Milliy g'oya va uning mazmun-mohiyatini ongi va shuuriga singdirish;
- Yot go'yalarga qarshi kurasha oladigan, o'z fikrlarini erkin bayon eta oladigan qilib tarbiyalash;
- Milliy va umubashariy qadriyatlarga e'tiqod hissini uyg'otish;
- Ta'lim-tarbiya tizimigaogli munosabatda bo'lish;
- O'quvchi yoshlarda mustahkam mafkuraviy immunitetni shakllantirish;
- Uztoz-shogird tizimiga doimiy ravishda amal qilish;
- O'quvchi yoshlarning ijtimoiy faolligini doimiy oshirib borish.

Yuqorida qayd etib o'tilganidek, milliy g'oyaning jamiyat taraqqiyoti va barkamol avlod tarbiyasidagi ahamiyati beqiyos. Milliy g'oyani o'zda tarkib toptirgan kishilar shaxsning barkamol shakllanishida asosiy o'rin tutadi. Xususan, milliy g'oya tushunchalariga ega bo'lgan bo'lajak o'qituvchilar kelajakda yosh avlodni ma'naviy yetuk axloqiy sifatlar bilan qurollantirib tarbiyalaydi. O'zida bor ijobiy fazilatlarni o'quvchilarda ko'rishga intiladi.



Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov “O’z tarixini bilmaydigan, kechagi kunni unutgan millatning kelajagi yo’q, “Uzoq tariximizdan ma’lumki har qanday zo’ravon bosqinchilari va yurtimizda hukmronlik qilmoqchi bo’lgan kuchlar yovuz niyatlariga erishish uchun, avvalo, milliy madaniyat va an’analarimizni yo’q qilish, shu yo’l bilan bizni ma’naviy jihatdan zaiflashtirish , kuch qudratni yo’qotishga harakat qilganlar.Bu haqiqatni hech qachon yodimizdan chiqarmasligimiz kerak”- deydi.

1.2. Boshlang'ich sinf o'qish darsliklarida milliy istiqlol g'oyasini singdirish haqidagi asarlarning berilishi

O'qish darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra boshlang'ich ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi. Barcha fanlarni o'qish fanisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. O'qish darslari orqali o'quvchilarning DTS bo'yicha o'zlashtirishi ko'zda tutilgan bilimlarni hamda o'quv bilim, ko'nikma va malakalarini egallashlariga yo'l ochiladi. Aynan o'qish darslarida insonning, avvalo, o'zligini, qolaversa olamni anglashga bo'lgan intilishlariga turtki beriladi. Shuning uchun "O'qish kitobi" darsligidan ona tabiat, atrofimizni o'rab turgan olam, Vatanimiz tarixi, bugungi qiyofasi, kattalar va bolalar hayoti, mehnat va istiqlol, milliy-ma'naviy qadriyatlar, xalqlar do'stligi va tinchlik kabi turli mavzular kiritilgan.

"O'qish kitobi" da o'qishning barcha bosqichlariga oid mavzular berilgan bo'lib, uning o'ziga xos xususiyati o'quvchilarni badiiy adabiyotning sehrli olamiga olib kirishi, dunyoqarashini milliy istiqlol g'oyasi asosida to'g'ri shakllantirishga qaratilishi bilan belgilanadi. O'qish darslarida o'quvchilarga milliy istiqlol g'oyasini singdirishdan ko'zlangan asosiy maqsad o'quvchilarni o'zlikni anglash, istiqlol, Vatan va tabiat, hayot bilan bog'liq tuyg'ularni uyg'otishdir.

Ijtimoiy-tarixiy mazmundagi mavzular Vatanimiz o'tmishi, xalqimiz hayoti, mardonavor kurashi, ulug' siymolar amalga oshirgan ishlar, tarixiy sanalar to'g'risida muayyan tasavvur beradi. Beruniy, Alisher Navoiy, Amir Temur, Bobur va boshqa ajdodlarimiz haqidagi matnlar shular jumlasidandir. Bu kabi asarlar o'quvchilarni faqat tarix bilan tanishtiribgina qolmasdan, Vatan oldidagi farzandlik burchi va mas'uliyatini teran anglashga yordam beradi. Ularda Vatanga muhabbat tuyg'usi shakllanadi, o'quvchilar o'tmish bilan bugungi kunni taqqoslar ekanlar, milliy istiqlol g'oyasi bilan bog'liq asarlar bilan ham tanishadilar.

"Shuni ta'kidlash lozimki, mustaqillikka erishish davri haqida, eski tuzum inqirozga duchor bo'lib, sobiq ittifoq parokandalikka yuz tutgan bir paytda mamlakatimizda tobora keskin tus olgan siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy vaziyat, o'zligimizni anglash va toptalgan milliy g'ururimizni tiklashga qaratilgan intilish kuchayib borgani vatanimiz mustaqilligini qo'lga kiritish qanday sharoitda

kechgani haqida, yaxlit yagona va xolis ko'z bilan qarab baho beradigan jiddiy tahlil –tadqiqot hozirgacha amalda yo'qligini afsus bilan aytishga to'g'ri keladi “.

O'zbekiston mana shunday tahlikali va murakkab vaziyatda qanday maqsadlarni ko'zda tutib, qanday amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirgani bu harakatlarning ilmiy tarixiy, mantiqiy va qonuniy zamini va omillari bo'lsa, istiqlol o'zbek xalqiga tuhfa tariqasida berilmagani – bularning barchasi haqida har taraflama chuqur yoritib va isbotlab beradigan izlanish va tahlil bugungi kunda ham o'zining dolzarbligi ahamiyatini yo'qotmaganini qayta aytishimiz zarur. Mustaqillik ulug' ne'mat ekanligini ,ota- bobolarimiz boshidan ko'plab sinovlarni o'tkazganligini hozirgi kunda hayotga kirib kelayotgan yoshlarimiz albatta bilishi, yurtimiz istiqboli qanday og'ir kurash va mashqatlar bilan qo'lga kiritilganligini anglab yetishlari lozim.

O'z-o'zidan ma'lumki, yangi davlat barpo etishda milliy va umuminsoniy qadyatlar ruhida tarbiyalangan mamlakatimizni modernizatsiya qilish va zamonaviy demokratik jamiyat qurish yo'lida murakkab va keng ko'lamli vaziyatlarni hal etishga qodir bo'lgan yangi avlod kadrlarni tayyorlash masalasi muhim printsiplial va hal qiluvchi ahamiyatga ega.

O'tgan yillar mobaynida ta'lim-tarbiyaga berilayotgan e'tibor mamlakatimizning egasi bo'lgan yosh avlodni har tomonlama komil inson bo'lib yetishida muhim ro'l o'ynaydi.

Biz o'z oldimizga qo'ygan maqsadimizni amalga oshirishda yurtimizda millatlararo totuvlikni, tinchlikni mustahkamlash, ma'naviy-axloqiy tarbiyani kuchaytish tarixiy ildizlarimizga milliy o'zligimizga qaytish kabi ishlarga alohida e'tibor berishimiz lozim. Ya'ni, kommunistik mafkura va axloq normalaridan voz kechishga undan so'ng jamiyatda paydo bo'lgan g'oyaviy bo'shliqdan foydalanib chetdan biz uchun mutlaqo yot bo'lgan ma'naviy–axloqiy tubanlik illatlarini o'z ichiga olgan ommaviy madaniyat yopirilib kirib kelishi mumkinligini barchamizga ayon bo'lishi kerak.

Bunday uzoqni ko'zlaydigan, aniq maqsadlarga ega bo'lgan turli xuruj va g'arazli intilishlar, xorijiy markazlar tomonidan katta kuch va mablag'

sarflanayotgan harakatlar va bu kabilar havf-hatarlar bizga qanday zararli oqibatlar olib kelishidan ogoh bo'lishimiz darkor. Bunday balo –qazolarga qarshi kurashda, farzandlarimizning ma'naviy dunyosini himoya qilishda nimalarga tayanishimiz zarur .

Avvalo, tog'ri tarbiya, sog'lom turmush go'yasi, faqatgina qattiq iroda va iymon-e'tiqot hisobidan bunga erishish mumkin. Men bizga mustaqil fikrlaydigan avlod kerak deganda shuni nazarda tutaman.

Aynan, ana shunday o'z kuchiga va irodasiga ishongan, keng fikrlaydigan, bilimli va madaniyatli yoshlarimiz har qanday buzg'unchi g'oyalarga berilmasdan, hayotda o'z yo'lini topib olishi muqarrar.

Buning uchun biz farzandlarimizni milliy tabiatimizga yot va zararli bo'lgan ta'sirdan himoya qilishimiz , ularni hayotga, yon-atrofdagi yuz berayotgan voqealarga daxldorlik hissi bilan yashaydigan, mustaqil fikrlaydigan, iymon e'tiqodli, barkamol insonlar etib tarbiyalashimiz lozim.

Yoshlarimiz qalbida sog'lom hayot tarziga intilishni, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat-extirom tuyg'ularini bolalik paytidan boshlab shakillantirishimiz lozim. Bu ularga yoshliklaridan, a'niqrog'i boshlang'ich sinflardan boshlab mustaqillik va mustaqillik bizga bergan ne'mtlar, mustaqillik haqidagi asarlar bilan tanishtirib borish orqali amalga oshiriladi. Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'qish darslari asosiy o'rinni egallaydi. Bola o'qish darslarida milliy qadriyatlarimizni ulug'lash, tabiatni sevish, O'zbekiston istiqbolini hurmatlash, qadrlash g'oyalarini, xalqimiz tarixi va madaniyati kabilarni o'rganib boradilar. O'qish darslari bevosita "O'qishkitobi " darsliklari orqali amalga oshiriladi. Darsliklar sinfdan sinfga o'tgan sayin takomillashib, kengayib boradi. Bu darsliklarda mustaqil O'zbekistonimiz tabiati, ma'naviy-ijtimoiy hayoti, xalq og'zaki ijodi, ajdodlarimiz me'rosi kabi bo'limlar ma'lum izchillikda berilib borilgan. Mustaqil O'zbekistonga oid bo'limlar quyidagi tartibda berilgan. 1- sinfda "O'zbekiston - vatanim manim " bo'limi ostida berilgan bo'lib unda quyidagi mavzular o'rin olgan.

1. Vatan – bu[Po'lat Mo'min].

2. Buyuklar vatani.
3. O'zbekiston askarlari. [Odil Abdurahmon].
4. Ota rozi –Vatan rozi .[Eson Rahimov].
5. Ulkan hovuz [Erkin Malik]
6. Qish [Tursinboy Adashboyev].
7. Oy allasi [Odil Abdurahmon].
8. Bu juda soz, juda soz [Po'lat Mo'min]
9. Bo'lim yuzasidan takrorlash.

2-sinfda “Ona yurtim - oltin beshigim “ rukni ostida quyidagi materiallar o'quvchilarga Vatanimiz o'tmishi, hozirgi kuni, bugungi kunda erishgan yutuqlari, buyuk ajdodlarimiz va ularning me'rosi haqida ko'p ma'lumotlar beradi .

1. Mustaqillik darsi bo'lib, unda mustaqillik bayramiga oid suratlar va o'zbek xalq maqollari berilgan.

Odam Vatanni sevar ,

Bulbul chamanni.

Vatan –ona .

Ostonasi –oltin.

2-mavzu. Hamza Imomberdiyev qalamiga mansub “O'zbekiston-mening Vatanim” nomli matndir. She'r va matnda aziz, mo'tabar Vatan O'zbekistonning nurli bo'ston ekanligi, uning so'lim, yashil vodiylari, obod shahar va qishloqlari, dunyoga mashhur Buxoro, Samarqand, Toshkent singari shaharlari haqida so'z boradi.

3-mavzu. Narimon Orifjonov qalamiga mansub “Vatan “ she'ri.

4-mavzu. Jumaniyoz Jabborovning “Istiqlol” she'ri.

5-mavzu. Humo qushi. Po'lat Mo'min.

6-mavzu. Toshkent matni.

7-mavzu. Toshkent metrosi.

8-mavzu. O'lka. (Erkin Vohidov)

9-mavzu. Hikoyat. Alisher Navoiyning “Hamsa” dostonlari tarkibiga kiruvchi Saddi Iskandariy dostonidan olingan.

10-mavzu. El-yurt uchun fidoyi insonlar. Bu asarda Vatanimiz ozodligi uchun kurashgan insonlar haqida so'z boradi.

11-mavzu. Sohibqiron bobomiz. (Muxtor Xudoyqulov).

12-mavzu. Mirzo Ulug'bek. (Muxtor Xudoyqulov).

13-mavzu. Karnaychi shox ertagi.

14-mavzu. Yur tog'larga chiqaylik. (Usmon Nosir).

15-mavzu. Tilagim. (Yo'ldosh Sulaymon).

16-mavzu. Bo'lim yuzasidan yakunlovchi dars.

3-sinfdalarda o'quvchilar "Ona bitta-Vatan yagona" bo'limidan joy olgan quyidagi asarlarni o'rganish orqali ona Vatanimiz O'zbekiston haqida ko'plab ma'lumotlar oladilar.

1. Bayramingiz qutlug' bo'lsin.
2. Sizga. (Abdulla Oripov).
3. Salom maktab. (Shuhrat).
4. O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi.
5. Ozbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i.
6. Vatanimiz gerbi-tug'ro haqida ertak. (Erkin Malikov).
7. Bayroq nima? (Alibey Rustamiy).
8. Vatanni suymoq. (Abdulla Avloniy).
9. Vatan mo'tabardir. (Xurshid Davron).
10. Ona yurti- oltin beshiging. (Oydin Xojiyeva).
11. Ona vatan.
12. Vatan haqida she'r. (Abdulla Avloniy).
13. Toshkentim onam.
14. O'ktam avlod qo'shig'i. (Anvar Obidjon).
15. Til qudrati.
16. Ona tilim (Tursunboy Adashboyev).
17. O'zbekim. (Erkin Vohidov).
18. Ro'zg'or daftari. (A.Zokirov)
19. Bilib qo'yki seni vatan kutadi.(Toxir Malik).

20. Dadam qurgan dengiz.(Xakim Nazir).

4-sinfda o'quvchilar mustaqil O'zbekiston hayoti haqida "Istiqlolim-istiqbolim" va "O'zbekiston-Vatanim manim" ruknlari ostida berilgan ma'lumotlar orqali ko'plab bilimlar oladilar.

1. Mangu tatigulik kun.(Safar Barnoyev).
2. Iqboli buyuksan. (Abdulla Oripov).
3. Assalom Neksiya.(Erkin Malikov).
4. Sog'lom avlod qo'shig'i.(Safar Barnoyev).
5. O'zbekiston. (Abdulla Oripov).
6. Serquyosh o'lka. (Zafar Diyor0).
7. Toshkentnoma. (Maqsud Shayxzoda).
8. Dehqon bobo va 12 bolakay qissasi. (Abdulla Oripov0).
9. Mardlik va aql yorug'ligi(Maxmud A'zam).
10. Xalq. (Cho'lpon).
11. Xarita (Normurod Norqobil).

Bu sinflarda berilgan materiallar bolalarning Vatanimiz O'zbekiston haqidagi, uning mehnatsevar xalqi hayoti hamda turli sohalarda erishgan yutuqlari haqidagi tasavvurlarni umumlashtirish va kengaytirishga imkon beradi. Bo'limda kelajakda bolalarni vatanparvar, insonoarvar, mehnatsevar, ma'naviytli o'z ona tilini qadriga yetadigan, uni hurmatlaydigan, boyligini yaxshi tushuna oladigan, bizning ishonchimiz va kelajagimiz, bugungi va ertangi kunimizni hal qiluvchi kuchga ega bo'lgan komil insonlar qilib tarbiyalashga xizmat qiladigan asarlar kiritilgan. Bo'limda berilgan asarlarni o'rganish orqali o'qituvchi bolalarga quyidagicha fikr hosil qiladi: O'zbekiston mustaqil davlat deb e'lon qilinganidan so'ng O'zbekistonda yashovchi xalqlarning hayotida o'zgarishlar ko'p bo'ldi. 1991-yil 31-avgustda O'zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni deb belgilandi va e'lon qilindi. 1991-yil 1-sentyabr O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligi kuni deb belgilandi, 1991-yildan boshlab 1-sentyabr Mustaqillik bayrami va dam olish kuni bo'lib qoldi degan fikr hozil qiladi. Shu bilan birga bolalar Mustaqillik bizga nima berganligini, Mustaqil O'zbekistonning ramziy

belgilari; gerb, bayroq, madhiya, valyuta haqida tushuncha hozil qiladilar. O'zbekiston mustaqilligini saqlab qolish uchun o'z vazifalarini bilib oladilar. Bu bo'limda o'zbek xalqining uzoq tarixga ega ekanligi va Al-Beruniy, Al-Farobiy, Al-Xorazmiy, Alisher Navoiy, Z.M.Bobur kabi buyuk allomalari bilan jahonga tanilganligini o'rgatiladi.

O'qituvchi bu darslarda faqat shular bilan cheklanib qolmasdan, navqiron avlodni milliy qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularga zamonaviy bilimlarni egallashlari uchun har tomonlama ko'maklashishi, g'amxo'rik qilishiga e'tiborni yanada kuchaytirish zarur.

Yoshlarimiz bolalarimiz ayni kunlarda biz kimmiz, qanday buyuk zotlar avlodimiz degan fikrlarni yana bir bor hayolidan o'tkazib, shu haqda chuqurroq o'ylamog'i lozim – dedi birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov o'z asarlarida.

Ota-bobolarimiz bugungi hayotimiz uchun, yurtimizning erkin va ozod bo'lishi, odamlarimizning farovon va munosib hayot kechirishi uchun xalqimizning or-nomusini himoyalash, Vatanimizning shonu-shuxratini yuksaltirish uchun qanday mashaqqatli kunlarni boshidan kechirgani, shu yo'lda jonini fido etib, qahramonlik ko'rsatgani yoshlarimizning yuragidan joy topsa va ular o'zlariga savol bersa: ota-bobolarimiz el-yurt uchun shunday katta xizmat qilgan bo'lsa, mening ham bu ulug' ishlarga o'z hissamni qo'shishga qurbim-qudratim yetadimi?

Ular boshlagan ishlarni davom ettirish xalqimizning ezgu maqsadlarga etishish uchun munosib farzand, munosib o'g'lon bo'lishga tayyormanmi? Degan fikrlarni uyg'otib yuborish kerak.

Darhaqiqat, o'quvchilar ongiga mustaqillik bizga nima berdi deb emas, balki, men bu ona Vatanimga nima berdim. Mustaqilligimizni mustahkamlash uchun kelajakda qanday inson bo'lishim kerak degan ruhda tarbiyalashimiz kerak. Bizning oliy maqsadimiz mustaqilligimizni yanada mustahkamlash ekan, bu yo'lda jonini fido qila oladigan insonlarni tarbiyalab voyaga yetkazishimiz har birimizning muqaddas burchimizdir.

Zero, O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov o'z asarlarida: "Yosh avlodimizning qalbi va ongini asrash , ularni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, farzandlarimizning dunyoda ro'y berayotgan siyosiy jarayonlarning ma'no-mazmuni va asl sabablarini

chuqur anglashi, o'z atrofida sodir bo'layotgan voqealar haqida haqqoniy ma'lumotlarga, eng muhimi, o'z mustaqil fikriga ega, soda qilib aytganda, oqni qoradan ajratishga qodir bo'lishiga erishish ta'lim-tarbiya va ma'naviy-ma'rifiy ishlarimizning asosiy sharti va mezonini bo'lishi kerak. Shu ma'noda, axborot olamida utunlik ko'p narsani hal etadigan bugungi vaziyatda mustaqil ong va mustaqil fikrga ega bo'lgan shaxsni tarbiyalash masalasi nafaqat ma'naviy, kerak bo'lsa , muhim siyosiy ahamiyat kasb etadi",-degan g'oyani ilgari surganlar.

Poklik, halol, iymonli kishining muhim fazilati ekanligini boshlang'ich sinfdanoq bola ongiga tarbiyaviy soat va ma'naviy tadbirlar, turli ma'naviy merosimizni IPT orqali singdirib borish kerak. Insonning yaxshi va yomon odatlari uning pokligi va halolligiga bog'liq ekanligi tog'risidagi hadis, ertak, hikoya, masallar orqali tushuntirmoq zarur. Boshlang'ich sinfalarda o'qitiladigan o'qish fani mazmunidan joy olgan rostgoylik, to'g'rilik, halollik, axloqiy tarbiya to'g'risidagi, ayniqsa, uning asosiy burchini his qilishga o'rrgatish huquqiy demokratik davlat va fuqoralik jamiyatini qurishdagi o'z burchlarini teran anglaydi va shuning bilan birga komil inson bo'lish, halollik va adolat bilan hayot kechirish kabi olijanob fazilatlarning ma'no-mazmunini nafaqat chuqur anglash, balki ana shunday xususiyatlarga ega bo'lish, ularga amal qilib yashash – odamzodning ma'naviy boyligini belgilab beradigan asosiy mezonini ekanligini teran anglaydi.

II bob. 4-sinfda o'qish darslari orqali o'quvchilarga milliy istiqlol g'oyasini singdirish haqidagi asarlarni o'rganishning metodik asoslari.

2.1. milliy istiqlol g'oyasini singdirish haqidagi asarlarni o'rganish usullari.

Ma'lumki, o'zbek xalqining milliy istiqlol mafkurasi o'z ahamiyatiga ko'ra, xalqimizning maqsad-muddaolarini ifodalaydigan, uning o'tmishi va kelajagini bir-biri bilan uzviy bog'laydigan, asriy orzu-umidlarni amalga oshirishga xizmat qiladigan g'oyalar tizimidir.

Milliy istiqlol mafkurasining tarkibiy qismini boy madaniy me'rosimiz tashkil etadi. Ma'naviyatimiz durdonalaridan bahramand bo'lgan sog'lom yosh avlod ruhan tetik, aqlan yetuk jismonan yengilmas – barkamol inson sifatida shakllanadi. Xuddi shu bois yoshlarda milliy his-tuyg'u, milliy xarakter, milliy qiyofa xususiyatlarini tarkib toptirish muhimdir. Ullarni o'zbek xalqining milliy an'analaridan, urf-odatlaridan, rasm-rusumlaridan boxabar qilib borish muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Milliy istiqlol mafkurasini yaratishda yoshlarimizga xalqimizga xos bo'lgan buyuk – mehnatsevarlik tuyg'usini singdirish alohida ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, axloq va odob madaniyati malakalarini egallash – ota-ona va kattalarni hurmat qilish, samimiylik, inoqlik, qadr-qimmat, vijdoniylik, iffatlilik, o'zaro yordam kabi insoniy hislatlar o'zbeklar ma'naviyati va ruhiyatining xususiyatlari hisoblanadi. Biz, o'zbeklarning tug'ishganlarga nisbatan iliq munosabatimiz, qarindosh urug'chilik rishtalari milly ruhiyatimizni aks ettiradi.

Yosh avlodni voyaga yetkazish vazifasi milliy xususiyat, milliy o'z-o'zini anglash, milliy tuyg'u, milliy xulq-atvor, milliy turmush tarziga asoslanib amalga oshirilsa, oila muhitida, o'quvchilar jamoasida hamjihatlik, iliq ma'naviy muhit, hamfikir bo'lishlik muqarrar vazifasidir.

Dunyoda ikki kuch - bunyodkorlik va buzg'unchilik g'oyalari hamisha o'zaro kurashda. Bunyodkorlik g'oyasi insonni ulug'laydi, uning ruhiga qanot bag'ishlaydi.

Buzg'unchilik g'oyalari esa xalqlar boshiga mislsiz kulfatlar keltiradi. Yozvuz g'oya va mafkuralarning eng ko'p tarqalgan shakli aqidaparastlikdi. Aqidaparastlik, qanday shaklda bo'lmasin, hamma zamonlarda ham jamiyat uchun birdek xatarlidir.

Milliy istiqlo mafkurasi:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, demokratiya tamoyillariga asoslanadi;

- Xalqimizning asrlar davomida shakllangan yuksak ma'naviyati, an'analari, ulug' bobokalonlarimizning o'lmas me'rosidan oziqlanadi;

- Adolat va haqiqat, erkinlik va mustaqillik g'oyalari hamda xalqimizning ishonch va e'tiqodini aks ettiradi;

- Yurt tinchligi, vatan ravnaqi, va xalq farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi;

- Jamiyat a'zolarini, aholining barcha qatlamlarini O'zbekiston buyuk kelajagini yaratishga safarbar etadi;

- Millati, tili va dinidan qat'iy nazar mamlakatimizning har bir fuqarosi qalbida ona Vatanga muhabbat, mustaqillik g'oyalariga sadoqat va o'zaro hurmat tuyg'usini qaror toptiradi.

Milliy mafkura faqat bugun emas, balki hamma zamonlarda ham eng dolzarb siyosiy-ijtimoiy masala, jamiyatni sog'lom, ezgu maqsadlar sari birlashtiribb, uning o'z muddaolariga erishish uchun ma'naviy-ruhiy kuch-quvvat beradigan poydevor bo'lib kelgan. U har bir vatandoshimizning oilasi, jamiyat, el-yurt oldidagi burchi va mas'uliyatini qay darajada ado etayotganini belgilaydigan ma'naviy me'zondir.

O'zbekistonda istiqomat qiladigan va o'z taqdirini shu muqaddas zamin bilan bog'lagan har bir inson "Vatan menga nima berdi?" deb emas, balki "Men Vatan ravnaqi uchun numa qilyapman?" degan mas'uliyat tuyg'usi bilan yshashi kerak.

Mustaqil O'zbekistonimiz uzra istiqlol shabadalari esib davlatimiz obro' e'tibori oshib bormoqda. Respublikamizning kelajagi ertangi kuni ko'p jihatdan

maktabga unda ta'lim olayotgan yosh avlodning qanday kamol topishiga bog'liqdir.

Ta'lim sohasidagi islohatlar ta'lim –tarbiya jarayonida o'qitishning yangi lohiyasi pedagogik texnologiyaga o'tish zaruriyati vujudga keldi.

Boshlang'ich sinflar da yangi pedagogik texnologiyaning o'yin faoliyatidan foydalanish qiziqarli hisoblanadi .Ma'lumki, o'yilar hamma vaqt ta'lim-tarbiyaning muhim vositasi vazifasini bajarib kelgan. Turli ta'lim tizimida o'yinlar muhim vosita vazifasini bajarib kelgan. O'yin jarayonida bolalalar jismoniy jihatdan takomillashadi. Uning qo'llari mustahkamlanadi, ko'zi o'tkirlashadi zehni chaxlanib , topqirligi va tashabbuskorligi oshadi . O'yin jarayonida bolalarda jismoniy jihatdan tashkilotchilik ko'nikmalari shakllanadi , vaziyatni baholash malakasi rivojlanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun o'yin o'ta muhim ahamiyat kasb etadi, o'yin ular uchun jiddiy mehnat va tarbiyaning jiddiy vositasi hisoblanadi.

Bugungi kunda dasturlashda ta'limning o'yin texnologiyasi keng qo'llanmoqda . Ta'limiy o'yinlarga asoslangan texnologiya o'rganiladigan o'quv materialini o'quvchilar ongiga o'yin faoliyati bilan uyg'unlashtirilgan holda shakllangan o'yin, mazmunan ta'lim holatida singdiriladi .

O'quvchilarni o'zlashtirishlarini nazorat qilish uchun ham o'yin texnologiyasidan foydalaniladi , (masalan , videotpishmoq , o'zingnomla , zinama –zina , bo'lishimumkin).

O'yin boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim –tarbiya berishning yetakchi usuli hisoblanadi. Shuning uchun ham o'yinlarga suyanish o'quvchilarni ta'lim yo'liga jalb etishning qulay yo'li deb e'tirof etilmoqda .

O'yin haqidagi ma'lumotlarning nazariy asoslariga qisqacha to'xtalib o'tmoqchiman .

Jamiyat taraqqiyoti jarayonida o'yinlarning paydo bo'lishini o'rganish murakkab muammolardan biri bo'lib kelgan.

Bizga ma'lumki, o'yin metodidan foydalanish ta'lim jarayoniga ancha yillardan beri tadbiq etib kelinmoqda , lekin bugunga kelib, ba'zi o'qituvchilarimizning dangasaligi sababli dars jarayonida qo'llanilmayapti .

O'yin faoliyatini inson faoliyatining muhim jabhasi bo'lib unda shaxs jismoniy va ma'naviy kuch sarflaganidan mamnun bo'ladi.

Bolalar o'ynaydigan o'yinlar ularning har tomonlama hayotga tayyorlash uchun yaratilgan . Shuning uchun ular inson faoliyatining mehnat qilishi, muloqat qilishining o'ziga xos shakli hisoblanadi. O'yinlarning ushbu xususiyatlari ularning nomlanilishidan ham ifodalangan ta'limiy o'yinlar , mehnat o'yinlari , muloqot o'yinlari , musiqali o'yinlar , badiiy o'yinlari , harakatli o'yinlar va hokazo.

O'yinlar ikkita asosiy turga bo'linadi: ochiq qoidali, ya'ni qoidalari ifodalangan o'yinlar va yopiq qoidali o'yinlar .

Didaktik , harakatli o'yinlar birinchi turga taalluqli, suyujetli –ro'lli o'yinlar ikkinchi turga kiradi , ulardagi qoidalar oldindan o'rnatilmaydi .

Harakatli o'yinlar. Bu o'yinlar boshlang'ich sinf o'quvchilarini jismoniy jihatdan, ma'naviy jihatdan tarbiyalashning muhim vositasi hisoblanadi. Ular qoidada belgilangan shartli maqsadga erishishga yo'naltirilgan faol harakatlarini bajarishni talab qiladi. Bu o'yin orqali o'quvchilarda 4-sinfdanoq birdamlik, hamkorlik, bir-birini hurmat qilish, o'ylaganini tez aytib olish kabi ko'nikmalarni hosil qilish mumkin. 4-sinfda harakatli o'yinlardan asosan dam olish daqiqasi sifatida foydalaniladi.

Masalan,Chumchuq churq-churq etadi.

Donni cho'qib ketadi.

Don cho'qisa mayliga

Hamma yoqqa sochadi.

O'ng qo'limda besh barmoq.

Chap qo'limda besh barmoq.

1, 2, 3, 4, 5; 1, 2, 3, 4, 5.

Ikkalasi do'st, o'rtoq.

Shu bilan birga quyidagi o'yinlardan foydalanish mumkin.

“So'zdan so'z tuzish” o'yini darsni mustahkamlash maqsadida o'tkaziladi. Bunda doskaga har bir qator uchun so'zlar yozib qo'yiladi. O'quvchilar esa so'zdagi harflardan boshqa so'zlar tuzadilar. Bu o'yin musobaqa tarzida tashkil etiladi. O'yin quyidagi ko'rinishda bo'ladi.

O'zbekiston chamanzorvatan

O'zchaman ana

Bekzor tan

O'zbekmaza tana

Ma'lum vaqt belgilanadi. So'ng g'olib qator aniqlanadi. Bu o'yin orqali o'quvchilarning faolligi oshadi.

U nima qilayapti?(pantomima). O'quvchilardan biri bolalar oldiga chiqib ovozsiz harakatlar qiladi. O'quvchilar jamoasi birgalikda uning harakatlarini izohlab berishlari lozim. Bunday o'yin o'qish va ona tili darslarida o'quvchilar nutqini o'stirish, ziyraklik va zeriktirmaslik uchun o'tkaziladi.

Masalan: Abdulla Oripov “Iqbol buyuksan” she'ri.

Avvalo rahmatdir onaga.

So'ng esa albatta otaga.

Bizlarga eslatmish hayotni.

Unutang hech qachon ustodni.

Sen o'zbek elining farzandi.

Istiqlol yurtining dilbandi.

Vatanning g'oyatda keng erur,

Barchaga barobar teng erur...

Ushbu she'rni o'rganishda doskaga bittadan bolani chiqarib stol ustida kichkina varaqchalarga yozib qo'yilgan bittadan qog'ozni olishlari aytiladi. So'ng bolalar o'z harakatlarida ona, ota, ustod va farzandlarni ifodalashadi, boshqa o'quvchilar topadilar. O'yin shu tarzda davom etadi.

“Quruvchi” o’yini

“Quruvchi” o’yini o’quvchilarni guruhlarga bo’lib, darsda o’tilgan mavzuni yoki yangi mavzuni mustahkamlash qismida yoki darsdan tashqari vaqtda o’tkazilishi mumkin. O’qituvchi avvaldan darsga tayyorgarlik ko’rib qog’ozdan “g’ishtchalar” yasaydi va bu g’ishtchalarga savol yozilgan qog’ozlarni yopishtirib chiqadi. “G’ishtchalar” soni o’quvchilar soniga teng yoki ko’p bo’lishi kerak. O’quvchilar minora yoki devor qurishlari uchun joy ajratiladi. Har bir guruhdan bittadan bola chiqadi va g’ishtchani olib savolni o’qiydi. Agar bolalar savolga to’g’ri javob bersalar o’zlarining maydonlriga g’ishtni teradilar. Agar noto’g’ri javob bersalar, o’qituvchi g’ishtchani olib qo’yadi. O’yin shu tahlitda barcha o’quvchilar qog’ozni olib bo’lgunlariga qadar davom etadi. Qurilish maydonchasida eng ko’p g’isht tergan o’quvchilar guruhi g’olib hisoblanadi. G’ishtchalarga quyidagicha savollar yozish mumkin:

1. O’zbekiston qachon o’z mustaqilligini qo’lga kiritgan?
2. O’zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti kim?
3. O’zbekiston Respublikasining davlat bayrog’i qachon qabul qilingan?
4. O’zbekiston Respublikasining davlat gerbi qachon qabul qilingan?
5. Mustaqillik bayrami qaysi kuni nishonlanadi?

Yuqoridagi o’yinlardan foydalanish darsni qiziqarli bo’lishini taminlaydi.

Syujetli, rolli o’yinlar. Bu o’yinlar bolalarni ma’naviy –axloqiy tarbiyalashda muhim o’rin egallaydi. Bunday o’yinlar odatda jamoaviy harakterga ega. Mazkur turdagi o’yinlar rolli, dramali o’yinlar va rejissorlik o’yinlari kabi turlarga bo’linadi. Bunday o’yinlar asosini mavzu, mazmun va rol tashkil etadi.

Rollarga bo’linib ijro etiladigan o’yinlar. Bu usulni qo’llash orqali o’quv maqsadlariga erishibgina qolmay, o’qituvchi o’quvchilarda bilim olishga qiziqish, moyillik uyg’otish, darsni boshlanishida qo’llanganda esa o’quvchilarni darsga ruhiy tayyorlash ham mumkin. O’yin qiziqarli o’tishini, aqliy mehnati yoqimli mehnat jarayoniga o’tishiga qulay imkoniyat beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilar ertak yoki hikoya qahramoni rolini o'ynash jarayonida obrazni o'ziga hos xususiyatlarini, matn mazmunini yaxshiroq bilib oladilar.

Kompyuter o'yinlari. Bu o'yinlarning qulayligi shundan iboratki, ular o'yinda qo'yilgan vazifalar yechimini rollarda ko'rsatadi, masalan, ular hamkorlikda amalga oshirayotgan harakatlarni uning qatnashchilarini emotsional holatlarda yaqqol namoyish etadilar. Natijada bolalar hayotdagi turli vaziyatlarda ma'naviy- axloqiy qoidalarga rioya qilish tajribasini o'rganadilar. Sayohat o'yinlari romantikaga boy bo'lganligi sababli bolalarda qiziqish uyg'otadi, ularni syujet rivojlanishida faol qatnashishga undaydi. Albatta bunday o'yinlarni tashkil etishda o'qituvchi muhim o'rin egallaydi. Sayohat o'yini bola harakati, fikri, his-tuyg'ularini, uning bilimiga bo'lgan ehtiyojini qondirish shakli hisoblanadi.


O'yinning nomi, unda bajariladigan topshiriqlarning ifodalanishi bolalarni faollikka undashi lozim. Mazmuni idrok etishning topshiriq berish, uni hal etish yo'llarini ko'rsatish, sayohat yo'nalishini aniqlash kabi usullarni birgalikda qo'llanadi.

Bunday o'yinlarda qo'shiqlar, topishmoqlar ham bo'lishi mumkin.

Ko'pincha sayohat o'yinlarini ekskursiyaga o'xshatadilar. Bu noto'g'ri albatta, chunki ekskursiya - bu ta'lim berishning shakli, mashg'ulot turi, ekskursiyaning asosiy maqsadi bevosita kuzatishni talab qiladigan biron bir narsa bilan tanishtirishdan iborat.

Shuningdek, sayohat o'yinlarini sayrga ham o'xshatmaslik kerak, chunki sayr qilish sog'lomlashtirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Albatta, sayr qilish vaqtida ham ta'limiy vazifa bajarilishi mumkin. Masan 4-sinfda sayohat o'yinidan Normurod Norqobulkovning "Xarita" asari bo'yicha foydalanishimiz mumkin. O'quvchilar biz qishloqqa sayohat qilmoqchimiz. Bizga har bir bekatda bittadan savol berishadi. Agar savolga javob bera olmasak biz yo'lda qolib ketamiz.

Quyidagi chizma doskaga ilib qo'yiladi:



Bu mahallalarning har birining tagiga savol yoziladi. O'quvchilar bekatda uchragan savollarga javob berib yo'llarida davom etadilar. Bu o'yinni sinf uchun umumiy, guruhlarga ajratib yoki individual tarzda qo'llash ham mumkin.

Darsda ta'lim-tarbiya birligiga alohida e'tibor qaratish, o'quvchilarni erkin fikr bildirishga undash, darsda o'quvchilar faolligini oshirish "Sayohat o'yini" asosida tashkil etilgan darsning asosiy maqsadi bo'lishi lozim.

Topshiriq o'yinlar. Bu o'yin tuzilish jihatidan sayohat o'yinlariga o'xshaydi, lekin mazmuni va davomiyligi bilan bajariladigan harakatlar bilan ulardan farq qiladi. Topshiriq o'yinlarning asosini predmetlar, o'yinchoqlar bilan bajariladigan harakatlar va og'zaki topshiriqlar tashkil etadi. Topshiriqlar va harakatlar ularda biron narsa qilish haqidagi taklif shaklida ifodalanadi. Bunday o'yinlarga "Buratinoga so'roq belgisini topishda yordam ber", "Bilmasvoy bajargan topshiriqlarni top" kabi o'yinlarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Masalan, 4-sinfda "Istiqlolim – istiqbolim" bo'limini o'rganib bo'lgandan so'ng 'Buratinoga muammoni yechishga yordam ber' o'yinini qo'llashimiz mumkin. Bunda o'qituvchi u topshiriqni bajarishda o'quvchiga yordam berib turish yoki bosh harfni ochib berishi mumkin. O'quvchi ushbu topshiriqni bajargandan so'ng, Buratino nomidan ularga rahmat aytib, bolalarni rag'batlantirish lozim.

4-sinfda bu topshiriqni yanada murakkabroq tarzda berish mumkin.

Farazli o'yinlar. Bu o'yinlar "Nima bo'lar edi?", "Men nima qilgan bo'lar edim?", "Kim bo'lmoqchiman va nima uchun?" savollari yordamida o'quvchilar

o'z fikrlarini bildiradilar. Ayrim hollarda rasmlar bunday o'yinlarga asos bo'la oladi. O'yinning didaktik mazmuni shundan iboratki, o'quvchilar oldiga keyingi harakatlarni anglatib vazifa yoki holat qo'yiladi. Bajarilishi lozim bo'lgan harakatlar xususida o'quvchilar tahmin va taklif beradilar. Masalan, 4-sinfda Miraziz A'zamning "Mardlik va aql yorug'ligi" she'rini o'rganishdan avval o'quvchilarga soat rasmi ko'rsatiladi va u yuzasidan suhbat o'tkaziladi. O'quvchilar o'z vaqtlarini qanday o'tkazishlarini faraz qiladilar. So'ng o'quvchilar fikrning eng yaxshisini xattaxtaga yozib, "O'quvchining vaqti qadrlidir" mavzusida o'quvchilar fikri jamlanadi.

So'ng darslikdagi she'r bilan tanishtiriladi. Bu o'yindan foydalanishda o'quvchilarni yosh xususiyatlarini hisobga olish zarur.

Topishmoqli o'yinlar. Ma'lumki, topishmoq juda qadimdan paydo bo'lib bayram va tadbirlarga kiritilgan. Ular bilim va topqirlikni baholashni muhim vositasi bo'lgan. Hozirgi kunda topishmoq topishlar ta'limiy o'yinlar qatorida e'tirof etilmoqda. Topishmoqda mantiqiy vazifa ifodalanadi. Bunday topishmoqlar o'quvchilarning aqliy faoliyatini takomillashtirib, ularda tahlil qilish, umumlashtirish, xulosa chiqarish kabi malakalarni rivojlantirishga yordam beradi.

4-sinf o'qish darslarida topishmoq o'yinlardan foydalanish darsning yanada samarali bo'lishini ta'minlaydi. 4-sinfda quyidagi topishmoqlarni dars jarayonida qo'llash mumkin:

1. Dilga surur beruvchi

Alangamiz – alanga,

Bahor kelsa qirlarni

Bezaymiz alvon rangga

2. Yuvoshroqmiz kuchuklardan,

Sariq, ola, qoramiz.

Bir emas, naq beshta harfni

Yoddan ayta olamiz.

Yuqoridagi topishmoqlarni o'yin tarzida berilsa, ularning chaqqon va topqir bo'lib darsni samarasini oshirishlariga yaqindan yordam beradi. Darsni

mustahkamlab mevalarning qayerda pishishini, ularning qaysi faslda uzib olinishi haqida ham suhbat uyushtiriladi.

“**Meni tushun o’yini**”. Bu o’yinni o’quvchilar diqqatini jamlash maqsadida o’qish darslarida bo’ladigan dam olish daqiqalarida o’tkazish mumkin. O’qituvchi buyumlar nomi yozilgan qog’ozlarni stol ustiga teskari qilib qo’yadi. O’quvchilardan biri qog’ozlardan bittasini tanlab oladi va u qog’ozga yozilgan narsani shunday ta’riflash kerakki, qolgan o’quvchilar gap nima haqida ekanini angla ola olsinlar. Bu o’yin o’quvchilardan ziyaraklik, atrof-muhitga qiziqish, sinchkovlik xususiyatlarini vujudaga keltirish va rivojlantirish uchun qo’l keladi.

1 – variant: Bu yerda, davlatning nomi yoziladi. U bizning vatanimiz. Unda turli millat vakillari yashaydi. 1991 yil 31 avgustda mustaqil bo’lgan.

O’zbekiston.

2 – variant: U hamma davlatlarda bo’ladi. Rangi oq, yashil, moviy va qizil ranglardan iborat. Oy va 12 yulduz tasviri bor.

Bayroq.

3 – variant: Bu kunni hamma bayramona kayfiyatda bo’ladi. Bu yilning 20 yilligini nishonlaymiz. Bu qaysi bayram?

Mustaqillik bayrami.


Agar o’yin loyihasini tuzishda mavzuga bog’lanishni e’tiborga olsak bu mavzuni mustahkamlashga yordam beradi.

Suhbat o’yinlari. Bunday o’yinlar o’qituvchidan o’quvchilar bilan va bolalarning o’zaro muloqotiga asoslanadi. Muloqot o’yin shaklida amalga oshiriladi. Bu o’yinda o’qituvchi o’z nomidan emas, balki o’quvchilarga yaqin bo’lgan shaxs nomidan ishtirok etadi. Suhbat o’yini savol-javob tarzida tashkil etiladi. Masalan, “.....” ga oid mavzuni o’rganilganda “Cho’qqinizabt et” o’yinidan foydalanish mumkin.

Bu o’yinda javoblari tezkorlik bilan aytish shartligi uqtiriladi. Tayyorlangan ko’rgazmada zinalardan chiqib, cho’qqidagi bayroqchani egallashlari aytiladi. Barcha zinalar qirg’og’iga savollar yozib qo’yiladi. Savollarga navbatma-navbat javob qaytariladi. Natijada eng baland cho’qqiga chiqishga erishiladi. Agar biror

o'quvchi savolga javob qaytara olmasa, u holda ushbu o'quvchi o'yinda mag'lub bo'ladi.

O'yin sharti. Kim yoki qaysi guruh birinchi bo'lib savolga to'g'ri va tez javob berib o'z bayrog'ini cho'qqiga olib chiqsa, o'sha guruh yoki o'quvchi g'olib sanaladi. Bu o'yinni individual yoki guruh tarzida ham olib borilsa bo'ladi. Bu o'yinning guruh tarzida olib borilishi o'quvchilarni birdamlikda, hamkorlikda ishlashga undaydi.



O'quvchilar o'yin natijasida nimanidir kashf etib, nimanidir bilib olishlari mumkin. Shuningdek, bunday o'yinlar bolalarda diqqatni jamlash, bir nuqtaga yo'naltirish va o'z fikrini bildirish kabi xususiyatni shakllantiradi.

Didaktik o'yinlar murakkab hodisa bo'lib, uning tarkibida o'yinning ta'lim shakli va o'yin faoliyati sifatida ko'rsatuvchi elementlar mavjud. O'yinning asosiy elementi ta'lim va tarbiya maqsadiga bog'liq didaktik vazifa. Bunday vazifa ta'limiy faoliyatni belgilaydi va o'quvchi tomonidan aniqlanadi.

Didaktik o'yinlarda qoidalar belgilangan bo'ladi. O'qituvchi ulardan boshqaruv vositasi sifatida foydalanadi. O'yin qoidalari ta'limiy, tashkiliy shakllantiruvchi xarakterga ega bo'lib, ko'pincha o'zaro bog'langan shakldagi ko'rinishida bo'lishi mumkin.

Boshlang'ich sinflarda Milliy istiqlol g'oyasini singdirish haqidagi asarlarni o'rganishda didaktik o'yinlardan foydalanish ta'limning samarali bo'lishiga, o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatida muvaffaqiyatli boshqarishga ham katta yordam beradi, ya'ni didaktik o'yinlar vositasida nazariy bilimlar oson egallanadi, o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishlari ortadi. Bundan tashqari o'yin

bolalar uchun o'qish, mehnat hamda tarbiya vositasi vazifasini ham bajaradi. Shuningdek, bola psixologiyasining rivojlanishida ham o'yin katta ta'sir ko'rsatadi. Albatta, yaxlit pedagogik jarayonga kiritilgandagina, o'yin muhim ta'lim-tarbiya vositasida bo'la oladi.

Xullas, Milliy istiqlol g'oyasini singdirish haqidagi asarlarni o'rganish jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanish o'quvchilarni har tomonlama komil inson bo'lib yetishishlarida, ularni ma'naviy – axloqiy tarbiyalashda. Dars jarayonini bola uchun qiziqarli bo'lishida katta ahamiyat kasb etadi. Bu o'qituvchidan faqat o'yinlarni mavzuga va o'quvchining yoshiga moslab tanlashni talab etadi.

Hozirgi 4-sinf o'quvchilari- istiqlol mevalari. Ular boshqalarga qaraganda istiqlol tushinchasini yaxshiroq anglaydilar. Ular istiqlol masalasi har soatda tilga olinayotgan davrda yashamoqdalar.

4-sinfda “Istiqlolim – istiqbolim” bo'limizga kiritilgan she'rlar, froza asarlari ko'proq ta'limiy ahamiyatga ega. Ularda istiqlol sharofati bilan qo'lga kiritilgan yangiliklar o'z ifodasini topgan. Istiqlol tufayli ma'naviy qarashlarimiz, ma'naviy ongimiz yansda yuksaldi. Insonlarda ma'naviy-huquqiy tarbiyaga ehtiyoj o'sdi. “Istiqlolim – istiiqbolim” mavzusida S. Barnoyevning “Mangulikka tatigulik kun” asari orqali o'quvchilarga mustaqillik haqida, mustaqillik qaytib bergan allomalarimiz haqida bilim beramiz. Bolalarning mard, jasur, haqsevar, elparvar vatan uchun qayg'uradigan insonlar haqidagi tushunchalari boyiydi. Asarni o'qish orqali o'quvchilarning nutqiga mustaqilli, erk, ozodlik, O'zbekistin boyliklari, bug'doy, paxta kabi so'zlar kiradi va nutqiy o'sishi yuzaga keladi. Sal kam bir asr turg'unlikda yashagan davlatning haqiqiy vorislariga aylangan egasi bilan faxrlanadi.

Bo'limni o'rganish jarayonida “Nima uchun 1991-yil 31-avgust “Mangulikka tatigulik kun” deb tarifga kirdi. Mutaqillik qaytib bergan allomalarimiz kimlar? O'zbekistonning haqiqiy egalari kimlar? Savollari ustida ishlash orqali o'quvchilar bilimlari mustahkamlanadi. Keying darslarda shu kabi tpopshiriqlar asosida testlar ishlashsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Mavzu: O'zbekiston respublikasining davlat madhiyasi. Abdulla Oripov

Dars maqsadlari:

1. Ta'limiy maqsad: O'zbekiston respublikasining davlat madhiyasi misolida o'quvchilarning mustaqilik haqidagi tushunchalarini boyitish

2. Tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarda mustaqil Vatanimiz bilan faxrlanish va milliy g'urur tuyg'ularini uyg'otish

3. Rivojlantiruvchi maqsad: to'g'ri, ifodali va ongli o'qish sifatlarini takomillashtirish, nutqini rivojlantirish, nutq madaniyatini tarbiyalash.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi

Dars shakli: noan'anaviy dars

Dars metodi: kichik guruhlar bilan ishlash, izohli o'qish, suhbat, tarmoqlash.

Dars jihozi: sinf bayramona bezatiladi, yurtboshimiz Sh.M. Mirziyoyev va O'zbekiston qahramoni, shoir A. Oripov portreti, O'zbekiston Respublikasi davlat madhiyasi yozilgan, gerb, bayroq tasviri ifodalangan plakat. O'zbekistonning Mustaqillikdan keying taraqqiyoti tasvirlangan suratlar ilinadi. Texnik vositalar o'rnatiladi. Taqdimot.

Tashkiliy qism.

O'quvchilar 3 guruhga bo'linishadi. Sinfning ilg'or o'quvchilari qolgan o'quvchilar javobini hisobga olib, baholab borishadi.

Darsning borishi.

Kirish suhbat:

O'qituvchi: Bugun Vatanimizda qanday kun?

O'quvchi: 2-sentyabr – hamma maktablarda o'qish boshlangan kun.

O'qituvchi: Shodlik to'lsin desangiz

Yuragimga, dilimga

A'lo o'qing maktabda

Mehr qo'yib bilimga.

Shundan so'ng o'quvchilar bilan yozgi ta'ti haqida suhbat uyushtiriladi.

1. Suhbatdan so'ng o'qituvchi darsda qanday qatnashish kerakligi xususida savollar beradi.

O'quvchilarning javoblari quyidagicha bo'lishi mumkin:

- Darsda tartib –intizomga rioya qilaman.
- Savollarga qo'l ko'tarib javob beraman.
- Darsda faol ishtirok etaman.
- Aytilayotgan ma'lumotlarni e'tibor bilan tinglayman.

2. O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi yozilgan lenta qo'yiladi. O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasiga o'quvchilar jo'r bo'ladi. O'zbekistonning go'zal tabiati, davlat tashkilotlari, go'zal maskanlari, ishlab chiqarish korxonalari va boshqa tarixiy qadamjolar tasvirga olinga video lenta namoyish qilinadi.

O'qituvchi: O'zbekiston xalqi kecha qaysi kunni bayram qildi?

- Nimauchun Mustaqillik kuni katta bayram qilinadi?
- Mustaqillik so'zini qaysi so'z bilan almashtirish mumkin?

1-o'quvchi: O'zbekiston Respublikasi davlat ramzlariga nimalar kiradi?

Sinf xattaxtasi oldiga davlat bayrog'i va gerbini ko'targan o'quvchilar saflanadilar.

Saflangan o'quvchilar sinfdoshlari bilan davlat ramzlari haqida savol-javob o'tkazadilar.

2-o'quvchi: madhiyaning 3-bandini yod ayting va uning ma'nosini tushuntirib bering.

3-o'quvchi: "Madhiya" so'zining ma'nosini izohlab bering.

O'quvchilar javobi quyidagi ma'lumotlar bilan to'ldiriladi.

O'qituvchi hikoyasi: Madhiya istiqlolgacha bo'lgan davrda "Gimn" deb nomlangan. "Gimn" (yunoncha) – tantavor qo'shiq, she'r. Yunonistonda dastlab afsonaviy xalq qahramonlari, xudolar sha'niga maqtovlar (hamdlar) tarzida vujudga kelgan. Keyinchalik shaxslar, davlatlar, voqea va hodisalarga ham bag'ishlangan.

Madhiya – arabcha soʻz boʻlib “maqtov” , “taʼrif” degan maʼnolarni anglatadi. Biror shaxs voqea yoki narsaning maqtoviga bagʻishlangan badiiiy asar.

Oʻquvchilar ushbu maʼlumotdan xulosalarini aytib beradilar.

Bundan soʻng oʻqituvchi oʻquvchilarga Abdulla Oripov haqida maʼlumot beradi:


Atoqli oʻzbek shoiri va jamoat arbobi, zamonaviy oʻzbek sheʼriyatida inson qalbidagi murakkablik va ziddiyatlarni teran, haqqoniy, oʻziga hos betakror kuylagan taniqli ijodkor Abdulla Oripov 1941-yil 21-martda Qashqadaryo viloyatida tavallud topgan. A.Oripov hozirgi oʻzbek sheʼriyatiga yangicha badiiy tafakkur yoʻsinlarini olib kirdi.

Sheʼriy kitoblari:“Sohibqiron”, “Birinchi muhabbatim”, “Men nechun sevaman Ozbekistonni”, “Ezgulik”


U Oʻzbekiston Milliy universitetida tahsil olgan.

2016-yil 5-noyabrda AQSH ning Xyuston shahrida vafot etgan.

Shundan soʻng Oʻzbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi va gerbi haqidagi plakatlar tayyorlash boʻyicha guruhlarga boʻlinib ishlanadi. Bunga 7daqqa vaqt ajratiladi.



O'quvchilar ushbu ma'lumotlar asosida o'zaro savol-javob o'tkazish orqali bilimlarini mustahkamlaydilar.



Guruhlar o'zlari tayyorlagan plakatlarni sharxlab beradilar va savollarga javob beradilar.

4. O'quvchilar bilimini mustahkamlash maqsadida shodlik va ozodlik tushunchalari yuzasidan fikr mulohazalar bildirishlari so'raladi. Bahs-munozara muhiti yaratiladi. O'quvchilarning erkin fikrlari tinglanadi.

5. Dars yakunida tarbiyaviy xulosa chiqariladi va o'qituvchining xulosasi bilan darsning ta'limiy va tarbiyaviy qismi yakunlanadi.

6. Faol ishtirok etgan o'quvchilar baholanadi va rag'batlantiriladi.

7. Uyga vazifa beriladi:

“Istiqlolim – istiqbolim mavzusi yuzasidan matn tuzing yoki she'r yozing.

Davlatimiz birinchi rahbari Islom Karimov mustaqillikning dastlabki yillaridayoq “Bizga bitiruvchilar emas, maktab ta'lim va tarbiyasini ko'rgan shaxslar kerak”, deya ta'lim xodimlari oldiga vazifa qo'ygan edi.

Darhaqiqat, tarbiya haqida gapirar ekanmiz, u inson ma'naviyatning ko'zgusidir. Buyuk tarixga ega bo'lgan xalqning ma'naviyati ham buyuk bo'ladi. Chunki buyuk ma'naviyatga ega bo'lmagan xalq, buyuk kelajak yarata olmaydi. Demak, ma'naviyat insonning barcha qarashlarining mezonidir.

Darsning mavzusi: Yurt qalqonlari. Dilshod Rajab.

Darsning maqsadi: Ta'limiy: O'quvchilarga vatanparvar ajdodlarimiz haqida ma'lumotlar berish. O'quvchilarning ongli, ifodali va ravon o'qish ko'nikmalarini takomillashtirish.

F-K-2: o'rganilgan asarlarning nomi, muallifi, mazmuni va qahramonlarini ajrata oladi;

Tarbiyaviy: O'quvchilarni vatan himoyachilari haqida tushuncha berish orqali vatanparvarlik mustaqil diyorimizni sevish, uning aziz tuprog'ini e'zozlashruhida tarbiyalash, ularda ona yurtga muhabbat, sadoqat xislatlarini singdirish.

T-K-5: orasta kiyinish, yurish turishda kattalardan o'rnak olish;

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarda ona yurtga fidoiylik, faxr-iftixor tuyg'ularini qaror toptirish, to'g'ri, ifodali o'qish malakalarini rivojlantirish.

T-K-2: yaxshilik va yomonlikni bir-biridan farqlay olish va yaxshi fazilatlarni o'zida aks ettirish.

Dars turi: Yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi

Dars usuli: Aralash, ifodali o'qish, muammoli izlanish, munozara, didaktik o'yin.

Dars jihozi: AKT, Vatan himoyachilari kuniga bag'ishlab chiqarilgan plakatlar.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism.

Salomlashish

Navbatchi axboroti

Navbatchi axboroti orqali davomat va sinf xonasi tozaligi aniqlanadi.

Darsni oltin qoidalari eslab o'tiladi:

Aniqlik

Ahillik

Intizom

O'ng qo'l qoidasi

Ma'naviyat daqiqasi

Biz kimlarning farzandi?

Amir Temur dilbandi.

Tug'ilib o'sgan maskan?

Mustaqil O'zbekiston.

Vatanimiz qanday nom bilanataladi? -O'zbekiston.

- O'zbekiston Respublikasining prezidenti kim?
- Shavkat Miromonovich Mirziyoyev
- Vatan deganda nimani tushunasiz?
- *Vatan nima?*
- *-Vatan-bu tug'ilib o'sgan uyimiz, mahallamiz, ona*

diyorimiz.

- *- Siz qaysi Respublikada -yashaysiz?*
- *-O'zbekiston Respublikasida yashaymiz.*
- *-O'zbekistonning poytaxti qaysi shahar?*
- *-O'zbekistonning poytaxti-Toshkent shahri.*
- *-Mustaqil O'zbekistonning madqiyasi, gerbi, bayrog'I*

borg'i bor.

- Vatan haqida she'r aytadilar.
- Qish faslida nishonlanadigan bayramlar so'raladi va yangi mavzu aytiladi.



II. O'tilgan mavzularni mustahkamlash:

„Buyuklar vatani” mavzusi yuzasidan suhbat.

Savollar: Buyuk bobokalonlarimiz haqida nimalarni bilib oldingiz?

Buyuk ajdodlarimizdan yana kimlarni bilasiz?

Buyuk bobolarimiz Navoiy, Beruniy, Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino kabi jahon ilm- fani rivojiga asos solgan bobokalonlarimizning nomlari hozirgi kunda ham dunyoning turli burchaklarida baralla yangrayotganligini o'quvchilarga tushuntirib o'tiladi.

Guruhda ishlash:

”Qismning butuni” mashqi

O'quvchilar 4 kishilik kichik guruhlariga bo'linadi. Xatjild tarqatiladi. Uning ichida O'zbekiston, Amir Temur, Ulug'bek, Alisher Navoiyning rasmlaridan biri va matndan kesilgan gaplar solingan bo'ladi. O'quvchilarga rasm mazmuniga mos gapni ajratib olishlari, qolgan gaplarni xatjild ichiga solib qo'yishlari aytiladi. Har bir guruh taqdimot o'tkazadi.

1-xatjild

... ulug' odamlari - shoir-u olimlari, atoqli davlat arboblari bilan dunyoga mashhur .



... bobomiz ko`plab obodonchilik ishlarini amalga oshirgan.

... bobomiz osmondagi yulduzlarni sanagan.

... juda ko`p she`rlar yozgan.

2-xatjild




... ulug` odamlari - shoir-u olimlari, atoqli davlat arboblari bilan dunyoga mashhur .

... bobomiz ko`plab obodonchilik ishlarini amalga oshirgan.

... bobomiz osmondagi yulduzlarni sanagan.

... juda ko`p she`rlar yozgan.

3-xatjild



... ulug` odamlari - shoir-u olimlari, atoqli davlat arboblari bilan dunyoga mashhur .

... bobomiz ko`plab obodonchilik ishlarini amalga oshirgan.

... bobomiz osmondagi yulduzlarni sanagan.

... juda ko`p she`rlar yozgan.

4-xatjild



... ulug` odamlari - shoir-u olimlari, atoqli davlat arboblari bilan dunyoga mashhur .

... bobomiz ko`plab obodonchilik ishlarini amalga oshirgan.

... bobomiz osmondagi yulduzlarni sanagan.

... juda ko`p she`rlar yozgan.

Vatan--- vuqaddas dargoh. Uning har bir qarichi biz uchun azizdir. Shu yurtda tug'ilib, o'sib, shu yurtda kamol topgan zot borki, umr bo'yi unga nisbatan buyuk muhabbat bilan yashaydi. Bu jannatmakon diyorda ne-ne ulug' zotlar o'tmagan. Ularning vatan ravnaqiga qo'shgan hissalar ham dunyoga mashhur Biz Mirzo Ulug'bek, Xorazmiy, Beruniy, Farg'oniy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Mirzo Bobur kabi bobolarimiz bilan haqli ravishda faxrlanamiz. Ularning qoldirgan boy merosini o'qib- o'rganamiz. Nafaqat biz, balki butun dunyo ilm ahli ham ularning zakovatiga qoyil qolishgan. --O'quvchilar, siz uchun eng aziz joy qayer?—Eng aziz joy – O'zbekiston.---Eng aziz narsa-chi? ---Shu ona tuproq.---„Tinch elning bog'igullar” , deydi donishmandlarimiz. Shukrona aytamiz: Vatanimiz tinch, yurtimiz obod. Osoyishtalik tufayli kundan kunga rivojlanib borayotgan davlatimiz jahonga yuz tutmoqda. Tinchlik bor joyda bolalar kulgusi jaranglab turadi. Hayot gullab yashnaydi. Bizning mana shunday osoyishtaligimizni qo'riqlayotgan harbiy askarlarimizga bugun tasonnolar aytamiz. Ular tufayli yurtimizda osuda tonglar otmoqda. Dunyoda ona yurtni himoya qilishdan ortiq muqaddas burch yo'qdir. Vatanni himoya qilish – o'z ota- onasini, oilasini, uyini, xalqini



O'qituvchi: Har bir o'g'il bola yoshligidan „Katta bo'lsam, albatta, Vatan himoyachisi bo'laman”,-deya akalari kabi botir askar bo'lishni orzu qiladi. Bizning sinfda ham 14 nafar o'g'il bola bo'lib, endigina 8 yoshni qarshilaganlar. Ular ham ulg'ayib, albatta o'z niyatlariga yetadilar. O'zbekiston Respublikasi armiyasi safida xizmat qilib, ona yurt tinchligini muhofaza qiladilar. 1992- yil 14- yanvar kuni „O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlarini tashkil etish haqida” O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni e'lon qilindi.

14-Yanvar Vatan himoyachilar kuni



www.arxiv.uz

Shunga ko'ra biz har yili 14- yanvarni Vatan himoyachilar kuni sifatida nishonlaymiz.

Qomusimizning fuqarolarning burchlari to'g'risidagi 11-bobida O'zbekiston Respublikasini himoya qilish – O'zbekiston

Respublikasi har bir fuqorosining burchi ekanligi ko'rsatib qo'yilgan. Mudofaa- O'zbekiston davlatini, uning hududini, chegaralari, xalqi va boyliklarini dushmandan himoya qilishdir.

Chegaralarimizni mustahkam qo'riqlaymiz.



Dilshod Rajab haqida ma'lumotlar beriladi.

She'r ifodali qilib o'quvchilarga o'qib beriladi.

She'r yuzasidan suhbat.

-O'quvchilar she'r sizlarga yoqdimi?

- She'r nima haqida ekan?

O'quvchilar she'ni ichlarida oqib chiqadilar. Jo'r bo'lib o'qish mashq qilinadi.

Qatorlararo she'ni o'qish musobaqasi o'tkaziladi. Qaysi qator o'quvchilari she'ni tez, to'g'ri, ifodali o'qishda ilg'orlik qilsa o'sha qator g'olib sanaladi.

O'quvchilardan tushunmagan so'zlari so'raladi va lug'at ishi o'tkaziladi

She'ni topshiriq bilan o'qitiladi.--- Baxtimiz ayvoni deganda nimani tushunasiz, mardlar maydoni nima?

„Vatanimga hizmat qilaman” videoroligi namoyish etiladi.

O'quvchilarga slayd ko'rsatiladi.

Kichik sahna ko'rinishi: unda harbiy askar va uning ukasi dialogi, Ona vatanni himoya qilib qaytgan sevimli nabirasi bilan faxrlangan buvi obrazlari tasvirlanadi.

---Bugun Qurolli Kuchlar safida bizning mard, jasur akalarimiz o'z yigitlik burchini o'tashmoqda. Ular tufayli yurtimizda osoyishtalik hukmron. Biz sarkardalar avlodidanmiz. Kelajakda Sohibqiron bobomiz Amir Temurdek mard, jasur, eli va yurtiga sodiq, sheryurak Jaloliddin Manguberdiddek vatanparvar insonlar bo'lib kamol topamiz.

O'quvchilarga milliy qahramonimiz Shiroqning jasorati haqida so'zlab beriladi.

Vatanparvar ajdodlarimiz haqida qisqacha ma'lumotlar beriladi.

O'zbekiston xalq artisti Ozodbek Nazarbekovning „Mendurman“ klipi ko'rsatiladi.

IV. Mustahkamlash: savol-javob o'tkaziladi: 1. 14- yanvar qanday kun?

2. Harbiylarni biz nima uchun „Vatan himoyachilari“ deymiz?

3. Sizning tanishlaringiz yoki qarindosh – urug'laringiz orasida harbiylar bormi?

Darslikdagi maqol o'qib beriladi. Bolalarga o'qitiladi. O'quvchilardan ona yurt haqida maqollar so'raladi.

---Vatanni himoya qilish uchun har bir yigit- qiz yoshlikdan qo'rqmas, jasur, jismonan baquvvat, sog'lom, eng asosiysi, vatanparvar bo'lib ulg'ayishi kerak. Ona vatanimizning ertasi, uning gullab yashnashi, chegaralarimizning mustahkam qo'riqlanishi biz, yoshlarning qo'limizda. Kelajakda bizlar ham akalarimiz kabi ona-

Vatanimizning qo'rqmas, jasur, mard posbonlari bo'lib yetishmog'imiz kerak.

Vatanni astoydil himoya qilgan kishi --- qahramon. Mehnatda sidqidildan o'zini ko'rsatgan va yangilik yaratgankishi ---mehnat qahramoni, o'quvchilardan-chi? A'lo o'qib, odobli bo'lib, maktabda barchaga namuna bo'lgan o'quvchi---qahramondir. U ajoyib vatanparvar hisoblanadi.



V. Darsga yakun yasash va o`quvchilarni baholash.

Savol-javob:

1. Darsimizda nimalarni bilib oldingiz?
2. Nima uchun matnga “Buyuklar vatani” deb nom berilgan?
3. Buyuk bobolarimiz haqida nimalarni bilib oldingiz?



O`quvchilarni darsda ishtirok etishlariga qarab baholanadilar.

Darsning mavzu: Konstitutsiyamiz –baxtimiz poydevori

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: O'quvchilarga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi haqida tushunchaberish va demokratik huquqiy davlatda Qonun ustuvorligi va fuqorolik jamiyati haqida boshlang'ich bilimlarini shakllantirish. Konstitutsiya — davlatning asosiy qonuni, bolalar huquqlarining davlat tomonidan ta'minlanishi Konstitutsiya moddalari asosida o'quvchilarga tushuntiriladi.

FKI: suhbatdoshni tinglash, sukut saqlash va o'z fikrini to'g'ri bayon qilish.

TK-1: ixcham matn asosida yaratilgan audiomatn, videotasvirlarni tinglab tushuna oladi;

Tarbiyaviy: O'quvchilarni mustaqil fikrga ega bo'lgan, o'z xaq- huquqlarini taniydigan, o'z kuchi va qobiliyatiga tayanib yashaydigan, yuksak va e'tiqodli va

qonunda belgilab qo`yilgan huquq va burchlariniqadrlash tuyg`usini tarbiyalash va huquqiy madaniyatni shakllantirish .

TK-4: davlat ramzlarini bilish, davlat ramzlariga hurmat va ehtirom ko`rsata olish;

Rivojlantiruvchi: O'quvchilani mustaqil izlanishga, fikrlashga, o'z fikrini isbotlash va turli vaziyatlardan chiqishga o'rgatish jarayonida turli muammolarni hal etishga, ularning kelib chiqish sabablari, tuzatishga o'rgatish orqali fikrlash qobiliyatini rivojlantirish.

TK-3: rasmi kitoblar, jurnal va gazetalarni mustaqil o`qib-o`rganish orqali bilimni muntazam oshirib borish;

Dars turi: Yangi bilim,ko`nikma va malakalarni shakllantiruvchi

Dars usuli: Tushuntirish ,savol-javob, “Zanjir” usuli, “Musiqani top”, “Yosh huquqshunos” ta’limiy o’yinlari, “Taramoqlash” usuli ,bahs-munozara va ko`rgazmalilik.

Dars jihozi; O`zbekiston Respublikasi Davlat bayrog`i, gerbi, madhiyasi, Konstitutsiya kitobi, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev asarlari,istiqlolimiz aks etgan rasmlar, AKT,A3-formatdagi qog`oz va markerlar.

Darsning shiori:Konstitutsiyamizni o`rganish burchimizdir.

I.Tashkiliy qism:

O`quvchilar darsga tayyorlanadi.

Navbatchi axboroti.

O`quvchilar odobnoma fanida nimalarni o`rganamiz?

O`quvchilar “Zanjir ”usulida javob beradilar.

Odob- axloqni,do`stlikni,kasb tanlashni,buyuk allomalarni,yurtimizning tarixiy shaharlarini, huquqimizni,burchimizni, milliy an`analarni, oilaviy an`analarni, milliy merosimizni, yurt tinchligini, O`zbekistonni, qadriyatlarini ,sog`lom turmush tarzini, ezgu fazilatlarini, sehrli so`zlarni, hayotni o`rganamiz.

Ma`naviyat daqiqasi o`tkaziladi.

Biz kimlarning farzandi?

Amir Temur dilbandi.

Tug'ilib o'sgan maskan,

Mustaqil O'zbekiston.

O'quvchilar O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasini kuylashadi.

Hurmatli o'quvchilar ayting-chi, siz Vatan deganda qayerni tushunasiz?!

O'quvchi:

“Vatan” arabcha so'zdan olingan bo'lib “Ona yurt” ma'nosini bildiradi.

Vatan so'zi hamma uchun aziz va muqaddas. Vatan bu – faqat biz tug'ilib o'sgan joy emas. U bizning bepayon, go'zal O'zbekistonimiz.

O'quvchi:

Vatan bu – har bir inson tug'ilib o'sgan, kindik qonimiz to'kilgan tuproq o'sib ulg'aygan muqaddas maskan.

O'quvchi:

Vatan – beshigimiz ko'chamiz, uyimiz, turar joyimiz!

O'quvchi:

Vatan bu – muqaddas ona tilimiz!

O'quvchi:

Vatan buyuk millatimiz.

O'quvchi:

Vatan jonajon maktabimiz!

O'quvchi:

Vatan bu – ona tabiat in'om etgan barcha boyliklar va nozu- ne'matlar!

VATAN

Vatan! Mening onam, mening tuprog'im,

Vatan! Mening jonim, mening qo'rg'onim.

Sen mening hayotim, mening gulzorim,

Seni jonim qadar sevaman, Vatan!

Sen uchun jon berib, ketganlar qancha,

Seni deb qon yutib ketganlar qancha!

Sen uchun yig'lagan, kulganlar qancha,

Seni jonim qadar sevaman, Vatan!

O'quvchi:

Bizning Vatanimiz O'zbekiston Respublikasi bo'lib, Poytaxti – Toshkent shahri, Davlat tili – o'zbek tili. Yer maydoni 448,9 ming kv.kmni tashkil etadi. Aholi soni 33 million Pul birligi - so'm.

O'quvchi:

O'zbekiston Respublikasi 12 ta viloyat va Qoraqalpog'iston Respublikasidan iborat.

O'quvchi:

1991-yil O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan. Yurtimizning barcha go'shalarida 1-sentabr “Mustaqillik kuni” sifatida tantana qilinadi.

O'quvchi:

Mustaqillik, tufayli davlatimiz o'z bayrog'i gerbi, madhiyasi va qomusiga ega bo'ldi.



O'quvchi:

Shukur, erk quyoshi chiqib o'z haqqing huquqing o'zingga qaytdi. Bayrog'u gerbingni baland ko'tarib xalqing madhiyangni quvonib aytdi.

O'quvchi:

O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi 1992-yil 10-dekabrda qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi davlat mustaqilligining ramzlaridan biridir. Davlat madhiyasini kompazitor Mutal Burxonov so'zini shoir Abdulla Oripov yozgan.

O'quvchi:

O'zbekiston Respublikasi Davlat Gerbi 1992-yil 2-iyulda qabul qilingan. Davlat gerbi – davlat mustaqilligining ramzlaridan biridir.

O'quvchi:



O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i 1991-yil 18-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari o'tkazilgan VII sessiyasida tasdiqlangan. Davlat bayrog'i – davlat suverenitetining ramzlaridan biridir.

Qalbimiz to'la surur,
To'tiyo yurt tuprog'i,
Hilpirab turar mag'rur,
O'zbekiston bayrog'i.

Rangi hayot misoli,
Yulduzlari hiloli,
Mustaqillik timsoli,
O'zbekiston bayrog'i.

O'-O'zligini topdi hur o'zbek elim.
Z-Zuhroday charaqlar, porloqdir yo'lim.
B-Baxt qushi boshimda, maqsadim ulug'.
E-Erkim o'z qo'limda, niyatim qutlug'.
K-Kamolot cho'qqisin ko'zlaymiz toki.
I-Insoniyat yo'li – ezgulik o'yi .
S-Sadoqatli, iymoni bu xalqim azaldan.
T-Totuv yashar bir-biriga yelkadosh qardosh.
O-Olamni asraylik, tinch bo'lsin.
N-Nomi tilda doston, jon O'zbekiston.

O'qituvchi:Yoshlarni ma'naviyatini yuksaltirish va ularni bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha beshta muhim tashabbusni kim aytib beradi?

Birinchi tashabbus yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Ikkinchi tashabbus yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan.

Uchinchi tashabbus aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan.

To'rtinchi tashabbus yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo'naltirilgan.

Beshinchi tashabbus xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash masalalarini nazarda tutadi.

BESH TASHABBUS-BESH IMKONIYAT

Do'stim bekor o'tmasin kuning,
Ilm bilan bo'lgin yuzma-yuz.
Qara axir bizga sharoit,
Yaratmoqda beshta tashabbus.

Tabiatni turfa tasvirlab,
Rasm chizib bera olgin tus.
Yoki qo'shiq aytgin baralla,
Seni qo'llar beshta tashabbus.

Sog'lom tana, norg'ul bo'l doim,
Chempion bo'l, olg'a yur doim,
Sport bilan mashg'ul bo'l doim,



II.O'tilgan mavzuni mustahkamlash:

O'quvchilarga 3 xil kuydan pacha qo'yib beriladi. Kuylar qanday bir-biridan farq qilgani so'raladi.

- 1.“Kuy sehri” matnini o'quvchilar so'zlab beradilar.
 - 2.Matn yuzasidan savol-javob o'tkaziladi.
 - 1.Qo'shiqlar tarixi haqida nimalarni bilasiz?
 - 2.Yaxshi qo'shiq va musiqa insonga qanday ta'sir ko'rsatadi?
 - 3.Hududlarda rivojlangan qo'shiqchilik san'ati haqida nimalarni bilasiz?
 4. O'zbek milliy san'atiga hissa qo'shgan olim san'atkorlardan kimlarni bilasiz?
 - 5.“Kuy sehri” kim haqida?
3. “O'yla ,izla, top?”,ta'limiy o'yini o'tkaziladi.Bunda o'quvchilarga o'zbek milliy cholg'u asboblari chalingan kuylar orqali asboblarning nomini topish topshirig'i beriladi.



III.Yangi mavzusini bayon qilish:

Hurmatli o'quvchilar bugun siz bilan biz xatti- harakatlarimiz nazoratchisi-baxtimiz qomusi haqida suhbatlashamiz.

Insonning biror kuni yo'qki, u maqsadsiz yashagan bo'lsa. Maqsadsiz hayot-besamar umr deganidir.Bolajonlar, aql- idrok, turmush tarzimiz, imkoniyatlarimizdan kelib chiqib, maqsadlarimiz birlashsa, jamiyat va mamlakat maqsadlariga mushtarak bo'ladi. Bular muayyan davrning taraqqiyoti va istiqbolimizning asosiga aylanadi.

Istiqlol sari maqsadsiz qadam tashlab bo'lmaydi. Shuning uchun biz avvalo yangi, mustaqil davlat qurayotgan ekamiz, bizning bu yo'ldagi bosh maqsadimizni hurmatli birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov erkin demokratik davlat barpo etish hamda fuqarolik jamiyatini mustahkam poydevorini yaratish deb aniq qilib belgilab berganlar.

O'quvchilar, ushbu kun haqida aytib o'tganlarida, ushbu qutlug' sana umumxalq bayrami sifatida yurtimizda nishonlanishi, bu kunda barcha xalqimiz dam olishlari haqida ham aytib o'tadilar.O'qituvchi bu javoblarni umumlashtirib, ushbu qutlug' sana umumxalq bayramimiz qatoridan joy olib, har birimizning bugungi hayotimizni, kelajagimizni, inson sifatidagi haq- huquqimizni va erkinligimizni ta'minlashda beqiyos o'rni bor.

Xo'sh, Konstitutsiya nima? Biz u haqida nimalarni bilamiz? O'quvchilar bilan birgalikda darsni ochib beriladi.

O'quvchi:

“KONSTITUTSIYA” so'zi lotincha “constitution” so'zidan olingan bo'lib “tuzilish”, “tartib”, “nizom qoidalari” degan ma'nolarni anglatadi. Har bir inson o'z huquq va burchlarini bilishi lozim. Insonning eng oliy huquqi tinch yashash huquqidir.

O'qituvchi:

-Xo'sh Qonun deganda siz nimani tushunasiz?

O'quvchi:

-Qonun har bir inson bajarishi shart bo'lgan va davlat tomonidan o'rnatilgan tartibdir. Qonunlarning eng yuqorisi Konstitutsiya deb ataladi. Bu hujjat bizning asosiy Qonunimiz baxtimiz Qomusidir.

O'qituvchi:

“Huquq degani nima?”

O'quvchi:

-Huquq – davlat hokimiyati tomonidan belgilanadigan va qo'riqlanadigan, jamiyatda kishilarning o'zaro munosabatlarini tartibga soladigan qonun qoidalari, me'yorlar majmuidir.

-Biz yaxshi yashash, erkin fikrlash, sog'lom rivojlanish huquqiga egamiz.

O'quvchi:

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 1992-yil 8-dekabrda O'zbekiston Respublikasining 12-chaqirig'i Oliy Kengashining 11-sessiyasida qabul qilingan va 8-dekabr umumxalq bayrami, dam olish kuni deb belgilab qo'yilgan. Bu O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining qarori bilan tasdiqlangan. Konstitutsiya bizning asosiy qonunimizdir.

O'quvchi:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi "Muqaddima", 6 ta bo'lim, 26 bob hamda 128 ta moddadan iborat bo'lib, unda adolat ustuvordir. Shuning uchun ham Konstitutsiyamiz, "Adolat qomusi" deb ataladi.

O'quvchi:

Konstitutsiyamizning har bir bandida insoniylik, inson manfaatlaridan kelib chiqqan adolatli qonunlar ifodalangandir.

O'quvchi:

Unda inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, odillik bilan belgilab qo'yilgan.

O'quvchi:

Shuningdek Konstitutsiya har bir davlatning o'z oldiga qo'ygan maqsadlarini to'la ifodalovchi, barcha insonlarni baxt-saodatga yetaklovchi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini burchlarini belgilab beruvchi hujjat hisoblanadi.

O'qituvchi:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi moddalari bilan tarnishing.

1-o'quvchi: 1-modda: O'zbekiston suveren demokratik Respublika. Davlatning O'zbekiston Respublikasi va O'zbekiston degan nomlari bir xil ma'noni bildiradi

Karnay-surnay ovoz berdi jahonga,
Jahonni qaratdi O'zbekistonga.
Temurning ruhiga qilib qasamyod,
Yolboshchimiz etdi xalq dilini shod,
Yo'l boshchi so'zini ettirdi davom,
Dilida xalqiga chuqur ehtirom
Hech hazon bo'lmasin biz kezgan chaman,
Bizdan qolsin ozod va obod Vatan.

2-o'quvchi:

Marifat bo'stoni ezgu dostoni,
Dostligu tinchlikning metin qo'rg'oni,
Ey, ozod diyorim, O'zbekistonim.
Ey, obod diyorim, O'zbekistonim!

3-o'quvchi: 3-modda: O'zbekiston Respublikasi o'zining milliy-davlat va ma'muriy-hududiy tuzilishini, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining tizimini belgilaydi, ichki va tashqi siyosatini amalgam oshiradi. O'zbekistonning davlat chegarasi va hududi dahlsiz va bo'linmasdir.

Dunyo xaritasin bezab shersimon,
Qulochini yoydi hur O'zbekiston.
Xaritaga soling diqqat nazarin,
Ko'ring, havas qiling yurtim manzarasin.
U qaddin rostlagan sherga o'xshaydi.
Pahlavon, bahodir erga o'xshaydi.
Istibdod zanjirin uzib batamom,
O'zligin olamga etdi namoyon.
Ozod nafas oldi bu jaho aro,
Va dunyo bog'iga baxsh etdi oro.

4-o'quvchi: 4-modda: O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir. O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi.

Shu tilda Temur bobo
Lashkarga buyruq bergan .
Navoiy tuzgan navo,
Bobur gavharlar tergan
“Til- xalqning shavkat- shoni”,
Bu bobolar kalomi
Ona tilim unvoni ,
Davlat tili maqomi.

5-o'quvchi: 5-modda: O'zbekiston Respublikasi qonuni bilan tasdiqlangan o'z davlat ramzlari- bayrog'i, gerbi va madhiyasiga ega.

Olam ahli bilan qilib barobar,
Ayladi qadrdon, do'st-u birodar.
Chiqardi millatlar uyin to'riga,
Umr qo'shdi O'zbekiston umriga.
Mulki jahon bayroqlari qatori,
Shula sochdi bayrog'imiz sharori.
Olam aro madhiyamiz yangradi,
Eshitganki, kishi joni yayradi.
Mustaqillik bergan oliy baxtdir bu,
O'zbekka yarashgan toj-u taxtdur bu!

6-o'quvchi: 6-modda: O'zbekiston Respublikasining poytaxti – Toshkent shahri.

Ey ko'hna diyorum, ona Toshkentim,
Tarixda nomi Choch, gohi Shoshkentim!
Binkentu, Banokat, ko'zi yosh kentim,
Egilgan, sinmagan, boshi Toshkentim!

7-o'quvchi: 7-modda: Xalq davlat hokimyatining birdan-bir manbayidir.

Adolatning qo'yib tamal toshini,
Yo'l boshchi ko'tardi xalqning boshini.
U tinim bilmasdan ishladi har on.
Konstitutsiyaga fido qildi jon.
Birnchi o'ringa qo'yib insonni,
Inson sharafiga baxsh etdi jonni.
Qonunlar insonga qilmasa xizmat,
Qonunlar insonni etmasa izzat.
Qonun emas, dedi undayin qonun,
Qonunda insondir zori Humoyun.
Davlatning sharafi, shoni insondir,
Tanasi, yuragi, joni insondir.

8-o'quvchi:29-modda.Har kim fikrlash,so'z,va e'tiqod erkinligi huquqiga ega.

Har kim o'zi istagan axborotni izlash , olish va uni tarqatish huquqiga ega, amaldagi

konstitutsiyaviy tizimga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa

cheklashlar bundan mustasnodir. Fikr yuritish va uni ifodalash erkinligi faqat davlat siri va boshqa sirlarga taalluqli bo'lgan taqdirdagina qonun bilan cheklanishi mumkin.

Fikrlash,so'z,e'tiqod,
"Avval o'yla",deganlar,
Erkinligi bor bizda.Fikrlaymiz,o'ylaymiz.
Tafakkur,erkin ijod,
So'zga navbat kelganda,
Jo'sh urar qonimizda,
Odob bilan so'zlaymiz.

9-o'quvchi: 31-modda: Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan diniga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmasligi huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi.

Tiklandi iftixor va milliy g'urur,
Endi o'zbekman deb ayturmiz mag'rur.
Tiklandi an'ana, urf-odatimiz,
Tiklandi qadriyat tarix va moziy,
E'tiqod, din-iymon, ilmiy ilohiy.

10- o'quvchi:40-modda: Har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega.

Betob bo'lib,botib g'amga, Malakali tibbiy xizmat.
Yotib qolsak nogahon. Ko'rsatadi shifokor.
Shifokorlar tez yordamda, Elga xizmat- oily himmat.
Yetib kelar shu zamon.

11-o'quvchi:41-modda: Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir.

Ilmli kishini qadrlar zamon.
Ne zamon qadrlar jumlayi jahon,
Ilm bilan bezar umrini bashar.
Ilm-katta boylik, ilm-siymu zar,
Ilm bilan bezar umrini bashar
Umri oqibatda topgaydir qadr,
Ilmdan yaratdi eng oliy qasr

12-o'quvchi: 49-modda : Fuqarolar O`zbekiston xalqining tarixiy, ma`naviy va madaniy merosini avaylab-asrashga majburdirlar. Madaniyat yodgorliklari davlat muhofazasidadir

Obidalar, qo`lyozmalar
Ham osori atiqqa,
Bobolardan xabar berar,
Har nafas, har daqiqa.
Yodgorlikni asrar bo`lsang
Asraganday ko`zingni,
Shunda saqlab qolajaksan
Kelajakni, o`zingni

13-o'quvchi: 50-modda: Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo`lishga majburdirlar

Bugun ekkam qalamchang
Ka-a-tta terak bo`ladi.
Faqat uni avaylab
Asrash kerak bo`ladi
Tog` go`zal, o`tloq go`zal,
Sevamiz gulatrini.
Esda tutaylik, do`stlar,
Tabiatning qadrini

14-o'quvchi: 55- modda: Yer,yer osti boyliklari , suv, o`simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zahiralari umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir.

Yer,yer osti boyliklar,

Suv, o`simlik dunyosi-

Umummilliy xazina,

Topilmaydi qiyosi.

Qanoat, insof darkor,

Tagi mo`l bo`lgan bilan,

Kelajakning haqqi bor,

Oqilona foydalan!

15-o'quvchi: 64-modda: Ota- onalar o`z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdilar. Davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarining vasiyligidan mahrum bo`lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o`qishni ta`minlaydi, bolalarga bag`ishlangan xayriya faoliyatlarni rag`batlantiradi.

Ko`zlarida mehr bor, so`zlarida sehr bor,

Beshik ustida bedor- mehribon onaizor.

Oq yuvib, oq taragan, yo`limizga qaragan,

Ko`nglimizga qaragan- mehribon onaizor.

Ota-oila suyanchi,tog`dek ulug` tayanchi,

Biz tufayli quvonchi, baxtimizdan baxtiyor,

Sog`-salomat yursinlar, kamolimiz ko`rsinlar,

Ertaga ham bo`lsinlar baxtimizdan baxtiyor

16- o`quvchi: 66-modda. Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o`z ota-onalari haqida g`amxo`rlik qilishga majburdirlar

Jonajon onajon!
Mehribon otajon!
Siz hayot feringiz,
Bol, novvot berdingiz.
Quyoshim, oyimsiz,
Bor bo`ling doim Siz!
Ulg`ayib albatta,
Bir umr xizmatda
Bo`lamiz begumon,
Otajon, onajon

17- o`quvchi: 68- modda: O`zbekiston Respublikasi viloyatlar, tumanlar, shaharlar, qishloqlar, qvullar, shuningdek Qoraqalpog`iston Respublikasidan iborat

Viloyatlar, tumanlar,
Shaharlar, shaharchalar,
Qishloqlar-unovullar va
Qoraqalpog`iston-
Bari-bari jam bo`lib,
O`zbekiston atalar ,
Shunday gul-chechaklardan
Yaralgan go`zal bo`ston!
Aql Adolatni etur ustuvor.
Adolatli jamiyatga berganda baho
Qomusimiz nodir, tengsiz va a`lo!
Vatan posbonimiz bo`laylik hushyor,



Dam olish daqiqasi: Musiqiy asboblari haqida topishmoq aytiladi.

Uzun terak yiqildi, uchi mening qo`limda.
Bulbullari sayraydi, sochi mening qo`lima. (Tanbur)

Ikki tola sochi bor,
 Bo‘yni bilan barobar,
 Boshsiz bor qulog‘i,
 U shodlikning o‘rtog‘i. (Dutor)
 Bo‘z-bo‘z etar
 Qo‘limda uzun terak (Karnay)
 Gardish kabi yumaloq,
 Kumush halqali biroq,
 Qo‘shiq-kuyga jo‘r bo‘lar,
 Ijrochiga yo‘l bo‘lar (Nog‘ora)
 Qo‘lda o‘ynar ikki cho‘p,
 Sim torlari juda ko‘p (Chang)
 O‘zi mitti,
 Ovozi olamga yetdi. (Surnay)
 Bo‘yi pastak tayog‘im,
 Yengil qushdek tayog‘im,
 Teshigidan puflasam,
 Chalar xushtak tayog‘im. (Nay)

IV. Mustahkamlash: darslik bilan ishlash:

Darslikdagi Qambar Otaning “Baxt qomusi” she’ri “Zanjir” usulida o‘qiladi. She’r mazmuni tahlil qilinadi.

2. Guruhlarda ishlash:

1-guruh: “Konstitutsiya” ni “Tarmoqlash” usulida ta’riflaydilar.



2-guruh:

“Yosh huquqshunos” o‘yini.

O‘quvchilar ularni “Huquqlarimiz” va “Burchlarimiz” kabi turlarga ajratadilar. O‘rganilgan moddalar asosida tuzilgan kartochkalarni olib javob beradilar.

40-modda: Har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga

50-modda: Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga

41-modda- Har kim bilim olish

49-modda: Fuqarolar O‘zbekiston xalqining tarixiy ma‘naviy va

42-modda: Har kimga ilmiy va madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi


66-modda - layoqatli fuqarolar o‘z ota-onalariga g‘amxo‘rlik qilishga majburdirlar.

24-modda: yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir

64-modda- Ota –onalar o‘z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga

3-guruh:Krossvord yechadilar.

1. Odamlar, mamlakat aholisi
2. Davlat ramzlaridan biri
3. Vatanni sevadigan inson
4. Xalq tanlagan, xalqning davlat hokimiyatidagi vakili
5. Davlatning Asosiy qonuni



Guruhlar taqdimoti ko'riladi va izohlanadi.

VII. Darsda o'tilganlarini savol- javob orqali mustahkamlash:

1. Konstitutsiya so'zi qanday ma'nolarni anglatadi?
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qachon qabul qilingan?
3. Konstitutsiyada belgilangan qanday huquqlaringizdan foydalanmoqdasiz?
4. Bugun yurtimizda bolalarning baxtli yashashi, bilim olishi uchun yaratilgan sharoitlar haqida so'zlab bering.

Faol o'quvchilar va g'olib guruh aniqlanadi. Ular rag'batlantiriladi.

VI.Uyga vazifa: Mustaqil ravishda Konstitutsiyamizda berilgan moddalardan yod olish.

2.2 Boshlang'ich 4-sinf o'quvchilariga milliy istiqlol haqidagi tushunchalarni o'stirishda Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev asarlaridan foydalanish.

Prezidentimiz asarlari va nutqlarida inson, mustaqillik tafakkurining jamiyat, davlat va millat bilan uzviy aloqadorligiga e'tibor berilgan. Inson va jamiyat tafakkuri mohiyati jihatdan yaqin bo'lib, bir-birini o'zaro boyitadi va to'ldiradi. Insonning mustaqillik tafakkuri-millat, davlat va jamiyatning tarkibiy qismidir. Insonning tafakkuri, shaxsning kamoloti jamiyatda mavjud bo'lgan ko'p qirrali munosabatlar, shart-sharoit va imkoniyatlar asosida shakllanadi va amalga oshadi. Millat, davlat va jamiyat taraqqiyoti insonning mustaqillik tafakkuriga asoslanadi.

Insonning tafakkuri, dunyoviy va islomiy bilimlar, milliy qadriyatlar asosida shakllanadi. Ammo shuni yaxshi bilish kerakki, yuqori malakali mutaxassis, olim, me'mor, san'atkor, harbiy mutaxassis bo'lish hali yuksak tafakkurga ega bo'lishni aniqlamaydi. Yuksak tafakkur sohibi bo'lish uchun zo'r hayot maktabini o'tash, imonu-e'tiqod yo'liga kirish talab etiladi.

Mustaqillik tafakkuriga faqat madaniy, tarbiyaviy, axloqiy, diniy majmua deb qarash kamlik qiladi. Chunki, mustaqillik tafakkurida ulkan iqtisodiy, moliyaviy, texnikaviy, huquqiy mazmundagi tajriba va bilimlar ham aks etadi. Mustaqillik tafakkurining bunday ko'p qirrali mohiyatini, imkoniyatlarini maktab o'quvchilari puxta bilsa va amalda qat'iy e'tibor berilsa, foydadan holi bo'lmas edi.

Quyida biz 4-sinfda o'quvchilar qalbiga milliy istiqlol g'oyasini singdirish maqsadida olib borgan "Bir o'lkaki, tuprog'ida oltin gullaydi" mavzusida dars ishlanmasini havola etamiz.

Mavzu: Bir o'lkaki, tuprog'ida oltin gullaydi.

Darsning maqsadlari:

a) ta'limiy: Vatanga muhabbat va milliy istiqlol tuyg'usini o'quvchilar ongiga singdirish. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning "Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir" asari borasida, asardagi

ma'naviyat-insonning ulg'ayish va kuch-qudrat manbai ekanligi to'g'risida ularga tushuntirish;

b) tarbiyaviy: o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash. Ona yurtiga sadoqatli farzandlar bo'lib kamol topishlariga hissa qo'shish;

c) rivojlantiruvchi: mustaqil fikrlash va tafakkurini o'stirish.

Dars turi: yangi bilimlarni shakllantiruvchi.

Dars metodlari: bahs-munozara, klaster, savol-javob, guruhlar bilan ishlash.

Darsning jihozi: Vatanimizning tarixiy shaharlari, qadimiy obidalar, mustaqilligimizdan so'ng bunyod etilgan go'zal maskanlar, bog'lar aks etgan fotosuratlar

, Shoirlarimizning yurtimizni madh etib yozgan she'rlari, vatan haqidagi hikmatli so'zlar, hadislardan namunalar.

Darsning borishi.

Tashkiliy qism.

O'qituvchi:

Bir o'lkaki, tuprog'ida

oltin gullaydi,

Bir o'lkaki, qishlarida

shivirlar bahor,

Bir o'lkaki, sal ko'rmasa

Quyosh sog'inar,

Bir o'lkaki, g'ayratidan

asabi chaqnar ...

Aziz o'quvchilar! Bugungi darsimiz Vatan mavzusida bo'lib, mashg'ulotimiz davomida biz yurtimizning buguni, ertasi, kelajagiga nazar tashlaymiz. Mustaqillik tufayli qo'lga kiritgan yutuqlarimiz to'g'risida fikrlashamiz.

O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi o'quvchilar tomonidan ijro etiladi.

O'qituvchi: Vatan bu-bizning ota-bobolarimiz, buyuk ajdodlarimiz yashagan yurt. Qani, bolalar, siz ham so'zlarimga qo'shimcha kiriting-chi.

1-o'quvchi: Vatan bu- biz tug'ilib o'sgan, kindik qonimiz to'kilgan zamin, bizlarni oq yuvib, oq tarab voyaga yetkazayotgan qutlug' maskan.

2-o'quvchi: Vatan bu- bizning quvonchimiz va qayg'ularimizning guvohi bo'lgan serquyosh diyor.

3-o'quvchi: Vatan bu- baxtiyor avlodlarimiz yashaydigan, kelajagi nurli yurt.

O'quvchilar jo'rlikda:

Men seni sevaman, onajon

Vatan,

Sen borim- borlig'im, keng
jahonimsan.

Toabad omon bo'l, bo'lgin
salomat,

Baxtimning taxtisan, pok
imonimsan.

O'qituvchi: Aziz o'quvchilar! Vatan tabarruk maskan, ajdodlardan qolgan buyuk meros, aziz xotiradir. Shu bois Vatan deganda biz nafaqat mana shu yurt tuprog'ini, balki shu zaminda bo'y ko'rsatgan giyohdan tortib, uning daryo-yu soylari, barcha tog'-u toshlarigacha, odamlaridan tortib, to eng mitti jonivorlarigacha ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi. Aslida Vatanimizdagi oddiy xas ham, oddiy chag'ir tosh ham biz uchun muqaddasdir. Azaldan ajdodlarimiz yurt tuprog'ini ko'zlariga to'tiyo etgan, qayga borsa ham Vatan yodi bilan nafas olgan, uni yot kuchlardan, shum niyatlardan himoya qilgan. Har bir insonning vatani uning uchun dunyodagi eng go'zal va muqaddas makon hisoblangan.

Shukrlar bo'lsinki, Mustaqillik tufayli milliy va ma'naviy qadriyatlarimiz tiklandi. Milliy marosimlarimiz, bayramlarimiz, xalqimiz ardoqlagan azaliy udumlarimiz xalqimizga qaytdi.

Mustaqil respublikamizning ravnaq topishi bizning aqlu kamolimiz, bilim olish yo'lidagi intilishimiz va xulqimizga bog'liqdir. Demak, mustaqil vatanga har tomonlama yetuk komil farzandlar kerak ekan.

Aziz o'quvchilar bugungi darsimizni bahs-munozara tarzida o'tkazamiz. Bu shartni bajarishda ikki guruhga bo'linib olamiz, guruhlarni nomlaymiz. Endi ikki : "Barkamol avlod" va "Komil inson" deya nomlangan guruhlarimiz shartlar asosida bir-birlari bilan bellashadilar.

"Istiqlolga erishgan yurtim ta'rifi", deya nomlangan 1-shartni bajarishni "Barkamol avlod" guruhi a'zosi :ona vatanda yashamoq ulkan taxtdir. Shuning uchun g'urbatda, begona yurtlarda sarsonu sargardon bo'lgan zotlar Vatan dog'ini hech kimsaga ko'rsatmasin, deya nolayu faryod qilgan. G'ariblik dardini Alisher Navoiy bobomiz quyidagi ruboiysida shunday tasvirlaydi:

G'urbatda g'arib shodmon

bo'lmas emish,

El anga shafiqu mehribon

bo'lmas emish.

Oltin qafas ichra gar qizil

gul bitsa,

Bulbulg'a tikondek oshiyon

bo'lmas emish.

"Komil inson" guruhi a'zosi:

Ha, tog'ri. Umrining ko'p qismi Vatandan yiroqda o'tgan shoh va shoir Z.M.

Bobur bobomiz ham bu borada quyidagi misralarni bitgan:

Yod etmas emish kishini

g'urbatda kishi

Shod etmas emish ko'ngilni

mehnatda kishi

Ko'nglim bu g'ariblikda shod

o'lmadi, oh,

G'urbatda sevinmas emish,

albatta, kishi.

“Barkamol avlod” guruhi: Vatan ozod va mustaqil bo’lsa, uning bag’ri jannat bog’laridek fayzli, odamlari baxtli bo’ladi. Shuning uchun vatanning ozodligi va mustaqilligi uning har bir farzandi uchun jon kabi aziz va muqaddasdir. Inson uchun ona yagona bo’lgani kabi Vatan ham yagonadir.

“Komil inson” guruhi: hurmatli prezidentimiz: “Vatanga muhabbat hissi odamning qalbida tabiiy raishda tug’iladi. Ya’ni inson o’zligini anglagani, nasl-nasabini bilgani sari yuragida yurtiga muhabbat ham shu qadar cheksiz bo’ladi.”., degan edilar.

“Barkamol avlod” guruhi yurtboshimiz istiqlol yo’lida milliy davlatchiligimizni tiklashda uning jahon hamjamiyatidan munosin o’rin egallashda va huquqiy demokrtik jamiyat asoslarini barpo etishda beqiyos xizmatlar qildi. Presidentimizning izchil va qat’iy siyosati tufayli xalqimiz eng og’ir vziyatlarda ham tanlagan yo’idan qaytmadi, aksincha, hozir ham yuksak maqsafdlarni ko’zlab olg’a intilmoqda.

“Komil inson” guruhi: O’zbekiston o’zi uchun demokratik rivojlanish, fuqarolik jamiyati qurish yo’lini aniq ravshan belgilab olgandir va bu maqsad Konstitutsiyamizda muhrlab qo’yilgan.

“Barkamol avlod-Vatan tayanchi” deganda nimani tushunasiz?” deya nomlangan ikkinchi shart bo’yicha guruhlar javoblari.

“Barkamol avlod” guruhi: O’quvchilar o’rtasida sog’lom turmush tarzini targ’ib etish, giyohvandlik kabi yaramas illatning oldini olish maqsadida va zamonaviy axborot resurslari, xususan, internet tizimidan keng foydalanish yo’lga qo’yildi.

“Komil inson” guruhi: Ayniqsa, jismoniy tarbya va sport bilan shug’ullanishni kundalik hayotimiz tarziga aylantirish bo’yicha qilinayotgan ishlar alohida ahamiyatga egadir.

O’quvchilar yoshlar o’rtasida “Umid nihollari”, “Barkamol avlod” va “Universiada” kabi sport musobaqalarining bosqichma-bosqich o’tkazib borilishini

ham yurtimizda sportni keng ommalashtirishga berilayotgan katta e'tibor samarasidir, deb qabul qilish lozim.

Vatanimizning ravnaq topishida shu Vatanning har bir farzandi, o'sib kelayotgan barkamol alod avvalambor, o'z oldiga bunyodkor g'oyalarni qo'ymog'i lozim.

“Barkamol avlod” guruhi: Xalqimizning bosh maqsadi – Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish ekan, har birimiz “Shu ozod Vatan uchun nima qildim, nima qilmoqchiman?” degan savolni o'zimizga beraylik.

Yurtimizning tinchligi, bugungi kunda har birimizning ogohligimizga bog'liq.

“Kamil inson” guruhi: Men shu ozod va obod Vatanimda erkin va farovon yashayotganimdan faxrlanaman.

Vatanimni jondan, dildan sevib, kelgusida unga munosib kamil farzand bo'laman.

Guruhlar klaster usulida Vatan so'ziga ta'rif beradilar.



O'qituvchi: Ha, to'g'ri. Vatanimizni qanchalik sevsak, yurtimiz betakror va yagona ekanini yanada to'liqroq his etamiz. Darsimizni hurmatli Prezidentimizning “O'g'il – qizlarimizdan bitta iltimos:ota-onalaringizga, ustoz-murabbiylaringiz, xalqimizning sizlardan kutayotgan orzu-umidlarini amaliy ishlar bilan ro'yobga chiqarishda hormang, charchamang”, degan ajoyib so'zlari bilan yakunlamoqchiman.

Mavzu yuzasidan mustahkamlovchi savollar:

1. “Mustaqillik bizga nima berdi?” degan savolga sizning javobingiz.
2. Vatanimizda ta’lim sohasidagi o’zgarishlar. Biz, o’quvchilarga yaratilgan sharoitlar.
3. Nima uchun yurtimizni faxru g’urur bilan kelajagi buyuk, hur O’zbekiston deya ataymiz?
4. Vatanga munosib farzand bo’lishimiz uchun qanday ishlarni amalga oshirmog’imiz kerak?

O’quvchilar savollarga javob berish asosida Vatan haqidagi tushunchaning naqadar chuqur va teran ma’noga egaligini o’zlarining javoblari orqali bayon etishadi.

Dars yakunida g’olib guruhlar aniqlanadi va baholari e’lon qilinadi.

Uyga vazifa: “Mustaqillik uchun kurashgan ma’rifatparvar bobolarimiz” mavzusida referat tayyorlab kelish, Vatan haqida she’rlar yodlash.

2.3 Miliy istiqlol g'oyasini singdirish haqidagi asarlarni o'rganishda interfaol metodlardan foydalanish.

Interfaol(interact-inter-birgalikda, akt-harakat degan ma'noni bildiradi.) degani bu- o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorligi asosida dars samaradorligini oshirish, o'quvchida mustaqil fikrlash ko'nikmasi, fikr-mulohaza, bahs orqali shakllantiriladi, o'quvchiga qo'yilgan maqsadga mustaqil o'zi faol ishtirok etgan holda yakka guruhlarda javob topishga intiladi, fikrlaydi, baholaydi, yozadi, so'zga chiqadi, dalil va asoslar orqali yoritib berishga harakat qiladi. Bu esa qatnashchilarning xotirasida uzoq saqlanadi, yangi axborotni o'zlashtirishda tanqidiy, tahliliy yondosha oladi. O'qituvchi faqat fasimetator (yo'l-yo'riq) ko'rsatuvchi, tashkil qiluvchi, kuzatuvchi vazifasini bajaradi.

Men quyida boshlang'ich sinflarda milliy istiqlol g'oyasini singdirish haqidagi asarlarni o'rganishda interfaol metodidan foydalanishning bir nechta usulini yoritib berishga harakat qildim.

Diagramma Eyler-Vena.


Bu usuldan boshlang'ich sinf o'qish darslarida foydalanish mumkin. Bu o'yinda 2 ta oval figuralarning kesishmasidan foydalaniladi. Doirachalar uchta bo'lib bunda birinchi va uchinchi doirachalar ichiga berilgan topshiriqning farqli jihatlari yoritilsa, o'rtadagi doirachaga ularning umumiy o'xshash tomonlari yoziladi. Bu usulni asosan 2 toifadagi narsalar farqlash yoki o'xshash tomonlarini ajratishda qo'llagan ma'qul.

Bu usul yordamida mavzuga oid alohida sifatlarni, xususiyatlarni ajratishga o'quvchilar o'rganib oladilar.

Masalan, 4-sinfda yozuvchi , olimlar haqida o'rganish uchun ma'lumotlar berilgan. Abu Rayhon Beruniy, Al-Xorazmiy, Abdulla Avloniy, Ibn Sino, Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur kabi buyuk ajdodlarimiz haqida tushunchaga ega bo'ladilar.

O'qish darsida o'quv rejasi bo'yicha Alisher Navoiy hayotini o'quvchilarga o'rgatish maqsadida "Tanbeh", "Navoiy bobomlar" hikoyasi berilgan. Undan so'ng Zahiriddin Muhammad Bobur haqida "Hidi, tilimi, mazasidan" nomli mtn

berilgan. Alisher Navoiy haqida o'rganish darsida o'quvchilarga to'g'ri va ifodali malakalarini shakllantirish buyuk ajdodlarimizga nisbatan mehr tuyg'usini uyg'otish va ularning axloqiy sifatlarini namuna qilib ko'rsatishni maqsad qilib oladi. Bu darsda biz "Diagramma Eyler-Vena" usulini quyidagi tartibda qo'llashimiz mumkin.



1. Birinchi yarim doira ichiga Z.M.Bobur bobomiz haqida.
2. Ikkinchi yarim doira ichiga Alisher Navoiy bobomiz haqida.
3. Ularning o'xshash tomonlarini 3-doira ichiga yozing deb topshiriq beriladi.

Bu topshiriqni bajarish uchun o'quvchilarga vaqt beriladi va vaqt tugashi bilan guruhdan bir bola chiqib yozganlari bilan boshqa guruhlarni tanishtirish.

Mavzu: HIDI, TILIMI VA MAZASIDAN

Darsning maqsadlari:

Ta'limiy: O'quvchilarga ushbu mavzuni o'qib mazmunini tushuntirish. Z.M. Boburning vatanga bo'lgan muhabbatini o'quvchilar ongiga singdirish. Ularning og'zaki nutqini rivojlantirish, ifodali o'qish malakalarini takomillashtirish.

Tarbiyaviy: o'quvchilarga ajdodlarimizga nisbatan mehr hissini tarbiyalash, bilim olishga havasini kuchaytirish.

Taynch kompetensiyadan, milliy va umummadaniy

kompetensiyasi: (asarlarda aks etgan vatanparvarlik, insonparvarlik g'oyalarini, umuminsoniy va milliy qadriyatlar tasviridagi o'ziga xosliklarni anglay oladi, ulardan ta'sirlanib, go'zallik va ezgulikdan o'rnak olishga intiladi, yovuzlik va xunuklikdan nafratlana oladi) hosil qilish.

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarga ushbu mavzu asosida bog'lanishli nutqini rivojlantirish. Mustaqil, mantiqiy fikrlashlarni rivojlantirish. **Fanga oid kompetensiyadan, adabiy- nutqiy kompetensiya** (asarni tinglab tushuna oladi, asardagi voqea-hodisalarga o'z munosabatini bildiradi, qahramonlar xatti-harakati to'g'risida fikrlarni og'zaki bayon qila oladi, asarni ifodali o'qish, asar mazmuni asosida kichik hikoya tuza oladi) hosil qilish.

Dars turi: yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

Dars metodlari: suhbat, savol-javob, sahna ko'rinishi namoyishi.

Dars jihozi: rasmi ko'rgazmalar, videoprojektor, multimediyali ilovalar.

DARSNING BORISHI

Tashkiliy qism.

A) Salomlashish, davomat.

B) Ma'naviyat daqiqasi.

C) Darsga jalb etish.

D) O'quvchilardan bugungi navbatchini aniqlash. Fasl, oy, sana, ob-havo haqida va sinfimiz haqida ma'lumot so'rash.

O'qituvchi : Bahor qanday fasl?

O'quvchi: O'lkamizda fasllar kelinchagi bahor fasli tashrif buyurdi. Bahor yangilanish yosharish faslidir.

Bahor haqida she'r.

Bahor sening ta'rifing go'zal

Yorqin nurli tashrifing go'zal

Go'zallikda tenging topmadim

Sen haqingda tugamas g'azal.

Sen bahorni sog'inmadingmi?

Bahor bayramlari haqida so'z. bahor yurtimizg o'z bayramlari bilan kirib keladi. 8-mart Xalqaro Xotin-qizlar bayrami.

She'r

Ona nasihatini quyvolsin quloq

Dunyoda yomonlik istama mutloq

Bag'rida o'stirmish jonidan aziz

Joningdek aziz tut kechayu kunduz

21-mart she'r

21-mart Navro'z bahor bayrami

Navro'z qutlar olamni

Chaqmoq mushak zambarak

Taqib olgan sochpopuk

Xuddi gulxan qizg'aldoq

Binafshalar qisman oq

Somsa uchun momolar

Turar jag'-jag' ismaloq

She'r

9-may Xotira va qadrlash kuni

Yurtim ado bo'lmas armonlaring bor

Toshlarni yig'latgan dostonlaring bor

O'tmishingni o'ylab og'riydi jonim

Ko'ksing to'la shaxid o'g'lonlaring bor

O'qituvchi:

Bir o'lkaki tuprog'ida oltin gullaydi,

Bir o'lkaki sal ko'rmasa quyosh soginar

Bir o'lkaki g'ayratidan asabi chaqnar

Bir o'lkaki qishlarida shivirlar bahor.

-O'quvchilar, bu qaysi o'lka?

She'r

-Bu mening diyorum, hur gulistonim,

Atrofi ko'p go'zal bog'u – bo'stonim.

Jannatga qiyosdir har bir qadami,

Mening sajdagohim, O'zbekistonim.

Vatan haqida she'r

O'qituvchi: Vatan tushunchasi haqida so'z Vatan insonni ilk bor ko'z ochib ko'rgan qo'rg'oni, kindik qoni tomgan makoni. Shunday ekan biz vatanni ko'z qorachig'iday asrashimiz kerak bo'lsa jonimizni fido qilishimiz kerak ekan.

Prezidentimiz aytganlaridek “O'zbekiston kelajagi yoshlar qo'lida”dir.

O'qituvchi: sizlar ma'naviy bilimingizni qanday oshirib bormoqdasiz?

President asarlari

1. Ahmad

“Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizg berilgan baho”

2. Oydina

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

3. Muhammad

“Inson manfaatlari va huquqlarini ta'minlash-demokratik jamiyat asosidir.”

Asarlarini o'qib o'rganmoqdamiz.

O'qituvchi: Albatta sizlar ushbu asarlardan o'qib, kelajakda yurtimizga ma'naviy va jismoniy sog'lom farzandlar bo'lib yetishishingizga ishonamiz. Buning uchun sizlardan ko'proq o'qish, izlanish talab etiladi.

O'qituvchi: Biz o'tgan o'qish darsida qaysi mavzu bilan tanishganmiz.

Nodirbek: “Navoiy bobomlar” she’rini yodlab kelishni vazifa qilib olganmiz.



O’qituvchi shoir portretini multimediyali ilovada qo’yadi va vatan to’g’risidagi g’zllaridan eshittiriladi. O’quvchilar bilan g’zal mazmuni asosida qisqa suhbat o’tkaziladi.

O’qituvchi: O’quvchilar uyga berilgan vazifalarni baholaydi. She’rning muallifi kim?

T.Adashboyev haqida so’z.

T.Adashboyev yozgan asarlar haqida so’zlanadi.

She’rni yod oldirish.

O’qituvchi: Navoiy bobomlar kim bo’lganlar?

O’quvchilar:Ular so’z mulkingning sultoni g’azalnavis shoir bo’lganlar.

O’qituvchi: Navoiy bobomizning qanday g’zallarini yod oldingiz?

O’quvchilar:g’azallardan parchalar aytadilar.

O’qituvchi: Navoiy bobomizning qanday ruboiylarini yod oldingiz?

O’quvchilar: ruboiylardan parchalar aytadilar.

O’qituvchi: Navoiy bobomizning “Hamsa” asari haqida kim ma’lumot bilib keldi?

O'quvchilar: asar haqida o'rgangan ma'lumotlarini so'zlab beradilar..

O'qituvchi: "Hamsa" asari haqida multimediyali ilovadan foydalanib ma'lumotlar beradi, fikrlarni umumlashtiradi.

Yangi mavzu bayoni.

Falakning gardishi bilan Mirzo Bobur Hindiston degan yurtga borib qolib, u yerning sultoni bo'libdi. Hindiston bog'-rog'i ko'p, meva-chevaga boy yurt ekan. Bobur "mendan yodgorlik qolsin" deb Hindistonning ko'rkam joyiga bir bog' barpo ettiribdi. Dunyodagi eng katta bu bog'ga turli yurtlardan nihollar keltirib ektiribdi. Xalq dunyoga dong'i ketgan bu bog'ga "Bog'i Boburiy" deb nom qo'yibdi. Bog'dagi daraxtlar hosilga kirib, biram meva beribdiki, ularni hech qayerga sig'dirib bo'lmabdi.

"Bog'i Boburiy"ning bir chekkasi rezavor ekan. Unda piyoz, sabzi, bodring, tarvuz bitibdi. Ammo handalak bilan qovun bo'lmabdi.

Shoh bir yil qovun ektiribdi, bitmabdi, ikkinchi yil ektiribdi, bitmabdi, uchinchi yil ham ektiribdi, baribir qovun bitmabdi.

Qovun bitishga bitibdi-yu, birinchi yili gulidayoq hosilini tashlab yuboribdi, ikkinchi yil palagi "o'lib qolibdi", uchinchi yil pishib yetmay turib so'lib qolibdi. Boburshoh bo'lsa qovun topishni talab qilaveribdi.

-Bu yil qovun ekib pishirmasanglar, hammangizni jazolayman-deya g'azablanibdi.

Bog'bonlar nima qilishni bilmay rosayam boshlari qotibdi.

Oxiri Boburshohga bildirmay, uzoq Farg'onadan qovun olib kelishga ahd qilishibdi. Boburshoh bir necha oyga ovga ketib, qaytib kelgach, bog'bondan qovun yo'qatibdi.

Bog'bonlar Farg'onadan keltirilgan qovunni olib borishibdi.

Boburshoh qovunni hidlab ko'rib:

-Qayerda bitgan?-deb so'rabdi.

-“Bog'i Boburiy”da bitgan, -deb javob beribdi bog'bon.

-Yo'q, hali boshqacha. Bunday hidli qovun bu yerlarda bitmaydi, faqat bir o'lkada yetishadi, xolos. Sen meni aldayapsan, - debdi Boburshoh.

-Aldagan bo'lsam, bilganingizni qiling, shohim. Bu qovun "Bog'i Boburiy"da bitgan, - debdi bog'bon so'zidan qaytmay. Boburshoh qovunni hidlay-hidlay bo'yiga mast bo'lib, uni tilimlamoqchi bo'libdi. Qovun pichoq tegar-tegmasdan tarsillab yorilib ketibdi.

Boburshoh bog'bonga qarab:

-Yolg'on gapiribsan, qovunni qayerdan keltirganingni ochiq aytasan. Pichoq tegar-tegmay yotilib ketadigan qovun faqat men bilgan o'lkadagina bitadi. Sen mening savolimga to'g'ri javob bermading, qahrim qattiqligidan qo'rqmaysanmi?- debdi.

Oliyhzrat, aldasam boshimni tanimdan judo qiling. Mayli, men roziman. Siz ko'rib turgan qovun "Bog'i Boburiy"da bitgan,- debdi bog'bon yana bilmagan bo'lib. Tilida shunday debdi-yu, ichida : Boburshoh qani polizni ko'rsat, deb qolsa holim nima kecharkin, deb o'ylab vahimaga tushibdi. Buni Boburshoh sezibdi-yu, o'zini bilmaganga solibdi. Boburshoh qovunni so'yib, bir tilim olibdi-da, uni yeya boshlabdi. Qovun shirinligidan tilni yorar emish. Boburshoh qovun tilimini yeb bo'lib, bog'bonga qarabdi:

-Yo'q, sen meni aldayapsan. Bunaqa shirin, tilyorar qovun bu yerlarda bitmaydi. Boshqa joydan keltirgansan. To'g'risini aytsang, gunohingdan kechman. Bordi-yu, meni aldab yana yolg'on gapiradigan bo'lsang, boshingni tanangdan judo etaman,- debdi.

Boburshohni aldab bo'lmasligini bilgan bog'bon rostini aytishga majbur bo'libdi.

-Farg'ona viloyatidan keltirdik, - debdi ko'ziga jiqqa yosh olib.


Bog'bonning gapidan Boburshohning ko'ngli buzilib, yig'lab yuborishiga ozgina qolibdi. Bog'bon:

-Qovun bu nyerdan emasligini qayerdan bildingiz, shohim- debdi.

-Hidi, pichoq tegar-tegmas yorilib ketishi va tilni yorar shirinligidan ona yurtim qovuni ekaniligini angladim. Rahmatli otam bog'idagi polizda shunaqa shakarpalak ko'p bitardi. Uzoq Hindu yurtida turib yurtim shakarpalagi bilan siylaganing uchun gunohkor bo'lmay, in'om-ehsonga loyiqsan.

Boburshoh bog'onga rahmatlar aytib, bosh-oyoq sarpo beribdi.

O'qituvchi: Hikoyani multimediyali ilovada namoyish qilib beradi. Hikoya muallifi haqida tanishtiradi. Hikoyadagi notanish so'zlar asosida lug'at ishi o'tkazadi. O'quvchilarni ravon o'qishlarini tekshiradi, hikoya mazmuni asosida qisqa suhbat o'tkazadi.



Xattaxtdagi rasm va videoproyektordan foydalangan holda buyuk shox, shoir haqida ma'lumotlar beradi.

O'quvchilar: Mavzu asosida tayyorlagan sahna ko'rinishlarini namoyish qiladilar.

O'qituvchi: Darsni mustahkamlash uchun savol-javob o'tkazadi.

Z.M. Bobur kim bo'lgan?

Qanday ruboiylarini yod olgansiz?

Qanday g'zallarini yod olgansiz?

O'qituvchi: Bobur haqida she'r bilan darsni yakunlaydi.

O'qituvchi: Darslikdagi maqollar, hikmatli gaplar bilan ishlaydi.

Darsda faol ishtirok etgan o'quvchilar rag'batlantiriladi, baholanadi.

Uyga vazifa: Hikoya mazmuni asosida matn tuzish va so'zlashga tayyorlanib kelish.

O'qituvchi Z.M.Bobur haqida she'r aytib darsni yakunlaydi.

“Tarmoqlar” metodi.

Fikrlarning tarmoqlanishi- bu pedagogik usul bo'lib, u o'quvchilarning biror – bir mavzuni chuqur o'rganishlariga yordam berib, o'quvchilarni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog'langan holda tarmoqlashlariga o'rgatadi. Bu metod biror mavzuni chuqur o'rganishdan avval o'quvchining fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, yaxshi o'zlashtirish, umumlashtirish hamda o'quvchilarning shu mavzu bo'yicha tasavvurlarni chizma shaklida ifodalashga undaydi.

“Tarmoq” metodidan foydalanilganda o'quvchilarga uning qoidalari quyidagicha tushuntiriladi:

- Nimaniki o'ylagan bo'lsangiz, shuni qog'ozga yozing. Fikringizni sifati to'g'risida o'ylab o'tirmay, ularni shunchaki yozib bering.
- Yozuvingizni orfografiyasi yoki boshqa jihatlariga e'tibor bermang.
- Belgilangan vaqt nihoyasiga yetmaguncha yozishdan to'xtamang.
- Berilgan mavzuga bog'liq tushunchalarni ko'proq o'z fikringizga bog'lashga harakat qiling.

O'quvchilar ogohlantirilgandan keyin, bu usulni yangi mavzuni e'lon qilishdan oldin va yangi mavzuni mustahkamlashda qo'llash mumkin.


O'qish kitobida berilgan mavzular bilan o'qituvchi avvalo, yaxshilab tanishib chiqishi va berilgan matn nima haqida ekanligini aniqlashi lozim.

Keyin o'quvchilarga mavzu yuzasidan “Tarmoq” usulini qo'llash mumkin.

Masalan, o'quvchilarga milliy istiqlol g'oyasini singdirish haqidagi mavzular har bir sinfda bor. Bu haqda o'quvchilar har bir sinfda ma'lum bir bilimlarga ega bo'ladilar. 4-sinfda “Milliy istiqlol g'oyasini singdirish” haqidagi asarlarni o'rganishdan avval o'quvchilar bilan “Tarmoq” metodini o'tkazish mumkin.

O'qituvchi ularga bittadan oq qog'oz beradi.

O'quvchilar "Mustaqillik bizga nima berdi? Mustaqillik o'zi nima?" shular haqida nima bilsangiz, o'rtoqlaringiz bilan maslahatlashib qog'ozga yozing.



Yuqorida keltirilganidek, o'quvchilar bimalol mustaqillik haqida ko'p narsalarni yozishlari tabiiy. Chunki ular bog'cha va 1-2-sinflarda mustaqillik haqida ko'p eshitadilar, xatto o'zlari bu bayram qatnashchilari bo'lishgan. Shuning uchun ham bolalar fikrini bilish ularga mavzuni yaxshi o'zlashtirishga asos bo'ladi.


"Tarmoq" metodi qo'llanganda bolalar o'zlarida tug'ilgan fikrlarni bimalol yozma ifodalashlari mumkin. Belgilangan vaqt tugaganidan so'ng har bir guruhdan bittadan bola chiqib yozganlari bilan boshqalarni tanishtiradi va ular og'zaki rag'batlantiriladi. Keyin yangi mavzuni baholash tavsiya etiladi.

"Qarorlar shajarasi" metodi


"Qarorlar shajarasi" metodi muayyan fan asoslari borasidagi bir qadar murakkab mavzularni o'zlashtirish, ma'lum masalalarni har tomonlama puxta tahlil etish asosida ular yuzasidan muayyan xulosalarga kelish, bir muammo

xususida bildirilayotgan bir necha xulosalar orasidan eng maqbul, hamda to'g'risini topishga yo'naltirilgan texnik yondashuv hisoblanadi.

Ushbu metoddan yangi mavzuni mustahkamlashda foydalanish ma'qul. Chunki bu usul avvalgi vaziyatlarda qabul qilingan xulosalar mohiyatini yana bir bora tahlil etish va uni mukammal tushunishga xizmat qiladi. Guruh yoki sinf o'quvchilari ishtirokida qo'llaniladigan "Qarorlar shajarasi" bir necha o'n nafar o'quvchilarning bilimlari darajasini aniqlash, ularning fikrlarini jamlash, baholash imkonini beradi. Ta'lim jarayonida mazkur metodni qo'llanilishi muayyan muammo yuzasidan oqilona qaror qabul qilishda o'quvchilar tomonidan bildirilayotgan har bir variant, ularning maqbul hamda nomaqbul jihatarini mufassal tahlil etish imkoniyatini yaratadi. Dars jarayonida o'quvchilar quyidagi chizma asosida tuzilgan jadvalni to'ldiradilar.



"Qarorlar shajarasi" metodi quyidagi shartlar asosida qo'llaniladi.



Uning uchun alohida tayyorgarlik ko'radi.

Masalan, darsni boshida "Tarmoq" usulidan foydalangan bo'lsa, yangi mavzuni muhokama qilib bo'lgandan so'ng esa mavzuni umumiy xulosasini muammo tarzida ifodalashi mumkin. Muammo qo'yiladi va guruh tomonidan qabul qilingan fikrlarni yozish uchun ko'rgazmali qurol tayyorlanadi.

1.O'qituvchi o'quvchilarni 6-8 kishidan iborat guruhlarga ajratadi. Muammoning hal etilishi, bu borada eng maqbul qarorning qabul qilinishi uchun muayyan vaqt belgilanadi.

2.Sinfdagi o'quvchilar nechta guruhga bo'linsa, o'shancha plakat doskaga ilib qo'yiladi.

3.Munozara uchun ajratilgan vaqt nihoyasiga yetgach, har bir guruh a'zolari o'z guruhi qarori borasida ma'lumot beradilar. Barcha guruh g'oyalari belgilangan vaqt ichida yoziladi va uning to'g'risi aniqlanadi. Bunda o'qituvchi muammo yuzasidan qabul qilingan qarorni sababini izohlaydi.

Boshlang'ich sinfda bu metoddan foydalanilganda yuqoridagi shartlarni bajarish kifoya. Lekin yuqori sinflarda muammo yuzasidan bildirilgan fikrlarni afzallik va kamchilik tomonlrini ham yoritib berishlari talab qilinadi.

Biz 4-sinf o'qish darslarida "Qarorlar shajarasi" metodini quyidagi usulda foydalanishimiz mumkin.

Buning uchun 4-sinf "O'qish kitobi" dan biror bir matn tanlaymiz, darslikda "To'maris" nolmi afsonadan parcha berilgan.

Ushbu mavzuni boshlashdan avval bolalardan "Tarmoq" metodidan foydalanib, Ona yurt deganda nimalarni tushunishlari va u haqidagi tushunchalarini bilib olinadi, so'ng yangi mavzu bilan o'quvchilar tanishib chiqadilar. Parchani o'qib, To'maris kim ekanligini, uning jasorati haqida bilib oladilar. Keyin mavzu yuzasidan topshiriq berib, ularning tushunchalari aniqlanadi. Avval ham ta'kidlanganidek, boshlang'ich sinf o'quvchilariga muammoni savol tarzida berish qulaydir.

Muammoni xattaxtaga yoki oldindan tayyorlab qo'yilgan katta qog'ozga barcha o'quvchilarga ko'rinadigan qilib yozib qo'yish ham mumkin. Agar sinfdagi o'quvchilar 4 guruhga bo'lingan bo'lsa, 4 ta plakatni xattaxtaga ilib qo'yiladi. U plakatlarga har bir guruhdagi bolalar o'zaro maslahatlashib, o'z fikrini oralaridan bittadan o'quvchi chiqib yozadi.

Buni uyushtirishda o'qituvchi nihoyatda ijodkor bo'lishi lozim. Avvalo, muammo qo'ygandn so'ng uni bajarish uchun 5 minut vaqt berilishi lozim. Vaqt

tugashi bilan yozishni to'xtatish kerak, shunda o'quvchilar tez yozishga harakat qiladilar.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdi-ki, demak bu metoddan darsni umumlashtirish va xulosalashda foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Agar o'rganilgan she'rni, asarni yoki matni agar o'zlari umulashtirsa, ularni esda saqlab qolishlari oson bo'ladi. Buning uchun albatta o'qituvchi ham o'quvchilar bilan hamkorlikda ishlashi shart.

Bu metoddan faqat afsonalarda emas, balki she'r, ertak, hikoya, masal va maqollarni o'rganishda ham qo'llash mumkin. Buning uchun o'qituvchi badiiy asarni yaxshilab o'rganib chiqishi, mazmunini to'la tushungan holda, o'quvchilarning yoshini, fikr doirasini hisobga olib o'ylab topishi lozim.

Agar o'qish darslarini yuqoridagi metod asosida tashkil etilsa, darsning samarali va qiziqarli bo'lishi ta'minlanadi.

4-sinfda **“AJDODLARIMIZ – FAXRIMIZ”** bo'limiga 9 soat ajratilgan.

Bo'lim materiallarini o'rganishda o'quvchilarni ulug' bobolarimizning hayoti va ijodi, ilmiy faoliyatlari haqida oldingi sinflarda olgan bilim va tushunchalariga asoslanib, yangi bilim va ma'lumotlar beriladi. O'quvchilar butun yil davomidagi o'qish jarayonida bobokalonlarimiz qoldirib ketgan bolalarning yoshiga mos asarlar bilan yaqindan tanishganligi nazada tutiladi.

“Ajdodlarimiz – faxrimiz” mavzusida o'qituvchi ilk darsini boshlashdanoq o'quvchilar ongiga, ruhiga ulug' ma'rifatparar ajdodlarimizning ziyo tarqatish, ilm ulashish yo'lidagi say-harakatlari qanchalik mashaqqatli, ammo sharafligini bo'lganligini singdirishni asosiy maqsad qilib oladi.

Bo'lim materiallarini o'quvchi o'rganib borar ekan, muqaddas diyorumizda yashab ijod qilgan ulug' adiblar, buyuk olimlar, ustozlarimiz haqida, ularning ilmiy faoliyatlari, bizga meros qilib qoldirgan durdona asarlari katta ma'rifiy ahamiyatga ega ekanligini tushuntiradi. Ularning nodir asarlari Vatanga, ona yurtga sodiq, vafodor insonlarni shakllantirishda juda katta o'rin egallashiga alohida urg'u beriladi.

Bo'lim materiallarini o'qituvchi o'quvchiga o'rgatib boorish orqali o'zi yashayotgan viloyat, shahar va qishlog'ida yashab o'tgan allomalar, buyuk shaxslar haqidagi kerakli ma'lumotlar berish lozimligini ham nazarda tutadi.

Bo'limda berilgan H.Sodiqovning "To'maris", T.Adashboyevning "Navoiy bobomlar", N.Karimoning "Rivoyat" kabi asarlarida Vatanga sadoqat, do'stga sodiqlik, mehr-oqibat kabi go'zal insoniy fazilatlar tarannum etilganiga diqqatni qaratishi ko'zda tutilgan.

Bo'limda berilgan qator tarixiy voqealar va shaxslar haqidagi asarlar o'quvchilar uchun ibrat va namuna vazifasini o'taydi. Bo'lim materiallari quyidagicha rejalashtirilgan.

MAVZU: TO'MARIS (2 SOAT)

Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad:O'tmishda yashab o'tgan vatanparvar ajdodlarimizdan To'maris haqida ma'lumot berish, uning Vatan oldidagi burchini to'g'ri anglaganini o'quvchilar ongiga yetkazish.

Tarbiyaviy maqsad:O'quvchilarda Vatan tuyg'usni kengaytirish, ularni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi maqsad:O'quvchilar nutqiga "To'maris, Sparganiz, Kurush, Krez ismlarini massaget, forslar kabi qabila nomlarini, Oks(O'kuz)-Amudaryo so'zlarini kiritish,, qayta hikoyalash asosida bog'lanishli nutqini o'stirish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, tarixiy hikoya o'qish darsi.

Dars metodi: izohli o'qish metodi.

Dars jihozi: janglar tasvirlangan sujetli rasmlar, multemedyali ilova.

Darsning borishi. o'quvchilarni asarni o'qishga tayyorlash

1.Bo'lim yuzasidan suhbat.Ajdodlarimiz deganda kimlarni tushunasiz? Nima uchun biz ular bilan faxrlanamiz? To'maris kim? U haqida nimalar eshitgansiz? Massaget, sak, so'g'd qabilalari haqida ma'lumot bering.

O'qituvchining hikoyasi. Qadimgi ajdodlarimiz o'z farzandlarini qiz yoki o'g'il bo'lishidan qat'iy nazar jasur, o'z Vatanining haqiqiy himoyachisi qilib tarbiyalaganlar. Ular bolalarini besh yoshdan boshlab o'qitganlar, otda yurish, yoydan o'q otishga o'rgatganlar. Ularni jasurlik, to'g'rilik, botirlik ruhida, o'z xalqi erki va mustaqilligining himoyachilari qilib tarbiyalaganlar.

To'maris ham shunday tarbiya topgan ayollardan biri.

2. Lug'at ustida ishlash:

- Bu asarda Kurush, Sparganez, Krez ismlari bor. Ularni esda sqalang. Oks (o'kuz) – Amudaryoning qadimgi nomi.

Massaget – qabila nomi.

3. “To'maris” asari bilan tanishtirish.

4. Asar yuzasidan dastlabki suhbat: - Asar kimlar haqida ekan? (Massaget qabilalari bilan fors qabilasi boshlig'I Kurush haqida ekan) –Kurush kimning gaplarini tingladi?

5. Asarni qismlarga bo'lib o'qitish. Bolalar o'qilayotgan paytda forslar podshosi Kurushning xatti-harakatlariga, elchining aytgan gaplariga, podsho atrofida o'tirgan sarkarda va mulozimlarning holatiga e'tibor bering.

6. Topshiriqlar asosida o'qitish: 1-bo'lim necha qismga bo'linadi? 1-qismni o'qing va unga sarlavha toping. (“Oltin-ro'zg'or buyumi”). Qolgan qismlar ham shu tarzda o'qitiladi va sarlavha topiladi. 2-qismga “Sharob nimaligini bilmaydigan xalq”; 3-qismga “Qiziq tomosha”; 4-qismga “Taklif rad etildi” sarlavhasi qo'yiladi. Oxirida bu sarlavhalar reja tarzida doskaga yozib qo'yiladi.

Reja.

1.Oltin – ro'zg'or buyumi.

2.Sharob nimaligini bilmaydigan xalq.

3.Massagetlar to'yi.

4.Taklif rad etildi.

7. Tanlab o'qish. O'quvchilarga rejaning oltin ro'zg'or buyumi sifatida ishlatilishini ifoda etgan qismini o'qib, qayta hikoya qiling. Qolgan qismi ham shu tarzda o'qitilib, qayta hikoya qildiriladi.

8. To'liq qayta hikoyalash. Bir o'quvchi reja asosida asarni to'liq qayta hikoyalab beradi.

9. Asarning 2-bo'limi birorta yaxshi o'qiydigan, o'qish ko'nikmasini yaxshi egallagan o'quvchiga o'qitilishi yoki magnit tasmasidan eshittirilishi lozim. Suhbat yo'li bilan bu bo'lim yuzasidan quyidagicha reja tuziladi.

Reja.

1.Krez-aqilli maslahatchi.

2.Krezning samo bilan aloqasi.

3.Artabazning taklifi.

4.To'marisning elchi bilan suhbat.

Reja asosida tanlab o'qish va qayta hikoyalash mashqi o'tkaziladi.

10. Darslikdagi savol-topshiriqlar ustida ishlash.

11. Qisqartirib qayta hikoyalash. Xattaxtada ikkala bo'limga tuzilgan reja yozilgan bo'ladi. Yaxshi o'qiydigan o'quvchiga asar qisqartirib qayta hikoya qildiriladi.

12. Umumlashtiruvchi suhbat. Darsda kim haqida hikoya qilingan asarni o'rgandik? Kurush nima uchun massagetlar yeriga ko'z olaytirdi? Kurushning taklifini To'maris nima uchun rad etdi? Kurush qanday qarorga keldi? Samo bilan aloqa deganda nimani tushundingiz? To'maris nima uchun janga tayyorlana boshladi?

13. Qahramonlarga tavsif. Tavsif T chizma asosida beriladi. Bunda o'quvchilar To'maris va Kurushni taqqoslaydilar, to'g'ri xulosa chiqaradilar:

- To'maris - sezgir ayol. Chunki u Kurushning niyatini darrov fahmladi.

- U ehtiyotkor. U xalqini urush ofatlaridan saqlash uchun Kurush taklifini yumshoqlik bilan boshqa ko'rsatib rad etadi.

-To'maris- jasur ayol. U dushmanga qarshi urushdan cho'chimaydi. Shuning uchun u elchiga : "Biz urushdan qo'rqmaymiz va o'z ona yurtimizni himoya qilamiz, shohingga ayt". – deydi.

Shu tarzda Krezning ayyorligi, mug'ambirligi, Kurushning bosqinchiligi, molparastligi, elchining ayg'oqchiligi haqidagi fikr-mulohazalar eshutiladi.

To'maris Kurush	
Sezgir	Ayyor
Ehtiyotkor	Mug'ambir
Jasur	Bosqinchi
Vatanparvar	Molparast
Suhbat yakunida tarbiyaviy xulosa chiqariladi:	

-“To'maris” asarini o'qish orqali sizda qanday tuyg'u paydo bo'ldi? “ Siz kimning o'rnida bo'lishni istar edingiz?”, “Siz o'z shaxsingizda qanday xislatlar bo'lishini istaysiz?”

14.Uyga. 1 va 2-bo'limni o'qib, qayta hikoyalashga: ko'z yugurtirdi, ko'zlarida yongan qiziqish, uloq chopish, chavandozlik, nigoh kabi so'z va iboralar ma'nosini izohlab berishga tayyorlanib kelishi vazifa qilib beriladi.

15. O'quvchilarni rag'batlantirish.

Izoh. O'quvchilar tarixiy davrdan hikoya qiluvchi afsona va rivoyatlarni ham tarixiy haqiqatga aylanishini, u real voqelikda yuz bergan deb o'ylashni istaydilar.

Dars yaxshi tshkil etilsa va o'tilsa, To'maris haqidagi afsona o'quvchilarga tarixiy haqiqat kabi tuyuladi. Bunday shaxs va oqealar tarixda bo'lgan deb biladilar, o'quvchilarda unga o'xshash istagi paydo bo'ladi. Vatanning gullab-yashnashi uchun har bir shaxs harakat qilishi lozimligini anglay boradilar. “Bunga erishish uchun nima qilish kerak?” – degan savol berilsa, o'ylashga majbur bo'ladilar. Shunda, hozir ularning oldidagi biron-bir vazifa yaxshi o'qish, bilimlarini boyitish, o'qiganlariga amal qilish ekanligini o'qituvchi ta'kidlab, ularning shaxsni shakllantirib borishi lozim.

“Kubik strategiyasi”.

Kubiklar- bu dars o'qitish metodikasi bo'lib, u o'zgaruvchan mavzuni o'rganishni osonlashtiradi. Kubikning kattaligi 15-20-sm bo'ladi, uning olti tomoniga 6 xil ko'rsatma yoziladi.

Olib boorish jarayoni : yangi mavzu bilan o'quvchilar tanishtiriladi va mazkur mavzuni ifodalash uchun qanday usul o'ylash mumkinligini so'raydi. Masalan, predmetni yaxshilab o'rganib, uni shakli, rangi, xususiyati, belgilari aniqlanadi.

1.O'quvchilar buni ifodalab bering, predmetga diqqat bilan e'tibor bering.

2.Taqqoslang.

3.Bog'lang.Bu sizni nima haqida o'ylashga, esga tushirishga, o'xshatshingizga, fikrlashingiz va eslashingizga undadi, e'tibor qiling. Bu predmetlar nima bilan bog'liq.

4.Buni tahlil qiling va qanday bajarish mumkinligini ayting.

5.Qo'llang, bu bilim nima qilish mumkin.

“Ma’qul” yoki “ma’qul emas”, “qo'llab-quvvatlash” yoki “qarshi emas” ligingizni, nima uchun bunday fikrga kelganingizni dalillovchi faktlarni keltiring. Turli isbot va dalillardan foydalaning.

Mazkur yozma ishdan so'ng o'quvchilar o'zaro javoblari bilan kubiklarni hamma tomoni bo'yicha o'rtoqlashadilar, sheriklariga o'zlarining yozgan javoblarini o'qib beradilar. O'quvchilar o'zaro fikr almashish jarayonida “bu yaxshi”, “bu to'g'ri”, “ men bunday deb o'ylamagan edim”, “bu tomoniga e'tiborimni qaratmayman” kabi fikrlarga ega bo'ladilar.

Har bir kichik guruhdan ko'ngilli bir bola xattaxtaga chiqib, guruhining yozgan ishini bayon etadi yoki o'qib beradi.

Boshlang'ich sinfda bolalarga tushunarli so'zlardan foydalanilsa ham bo'ladi.

1.Bu qanday, nimalarni ko'rayapsiz, yozib ifodalang?

2.Bu nimaga o'xshaydi yoki aksi?

3.Bu sizni nima haqida o'ylashga va nimalar haqida eslashga undaydi?

4.Bu nimadan yasalgan(kubni tahlil qiling)?

5.Bu yaxshimi yoki yomonmi? Asoslang.

Kubik usulini darsning ohirida yoki bo'lim yuzasidan yakunlovchi dars o'tganda qo'llash ma'quldir. Chunki dars davomida o'quvchilar yangi mavzuni

o'rganadilar. O'qituvchi ularga B.Blum taksonomiyasi bo'yicha begilangan maqsadlarni amalga oshirish uchun ma'lum bosqichlarni belgilab oladi.

Masalan, o'quvchilarga milliy istiqlol g'oyasini singdirishga oid asarlarni o'rganishda bo'lim yuzasidan yakunlovchi darsda bu metodni qo'llash mumkin. Buning uchun o'quvchilar 3 guruhga ajratib olinadi.

1.Rasmda nima tasvirlangan, yozma ifodalang. Bunda har bir guruhga alohidadan "Mustaqillik", "Yangi yil" va "Navro'z" bayramlari tasvirlangan rasmlar beriladi, o'quvchilar bu ishni yozma bajaradilar.

2.Bayramlarni bir-biridan ajratib turadigan o'ziga xos belgilar nima?

Bunda o'quvchilar bayramlarning bir-biridan farqini va alohida tomonlarini aytadilar. Masalan, yangi yilda Qorbobo kelishini, Navro'zda sumalak pishirilishini va hokazo.

1.Bu bayramlarni rasmlar bilan ifodalang. Har bir guruh o'ziga tushgan bayramlarni rasm orqali ifodalab beradi.

2.Bu bayram nima uchun shunday nomlanadi? O'z tushunchangizni yozing.

3.Bu qaysi bayramga tegishli? Bunda o'quvchilarga bittadan convert beriladi, har bir guruhga alohidadan, har bir convert ichida 4 tadan bayramlarga xos sifatlar yozilgan qog'ozlar bo'ladi. Ular o'zlariga tegishli bo'lgan jumlaning ajratadilar.

Masalan:

1.Sumalak pishirilmoqda.

2.Bolalar qorboboni chaqirishmoqda.

3.O'zbekiston madhiyasi yangramoqda.

4.Bahoroy keldi kabi

5.Har biringiz o'zingizga tegishli bo'lgan bayramni she'r bilan ifodalang.

Yuqoridagi savol va topshiriqlarni bajarish uchun albatta vaqt belgilash lozim. O'quvchilarga shuni tushuntirish kerakki, yozuv sifatiga va rasm chizishga katta e'tibor qaratilmaydi, balki, bu metodni qo'llashda ularni tushunchalarini aniqlash asosiy maqsad qilib olinadi. Bu usulning ahamiyatli tomoni shundaki, o'quvchilar avvalo, ular uchun atab yasalgan kubikni ko'rib quvonadilar. Unga

ehtiyotkorlik bilan yozishga harakat qiladilar. Bu esa ularga tarbiyaviy ta'sir etadi. Kichik yoshdagi bolalar bilan ishlashda kubikning uch tomonidagi savollardan foydalanilganda quyidagidek tartib saqlanishi kerak. Masalan, ertak yoki asar o'qib chiqilganidan keyin uning qahramonlari savol bo'yicha yozib chiqiladi. "Kubik" strategiyasini chaqiriq, tushunish bosqichlarida qo'llash mumkin.

"Kubik" strategiyasi usuli tanlangan mavzu yaxshigina o'ylab olinishi kerak, mavzu haqida o'quvchilar ko'proq bilishi kerak.

Demak, o'quvchilarning fikrlash doiralarini kengaytirish va o'z tushunchalarini yozma ifodalashga o'rgatish uchun "Kubik" strategiyasidan foydalanish yaxshi samara beradi.

"T" sxema metodi.

Bu metod orqali o'quvchilar narsalar, buyumlar va hodisalarning o'xshash va farqli tomonlarini ajratishni hamda ular asosida ma'lum bir xulosaga kelishni o'rganadilar. Bundan tashqari, narsalarni taqqoslashni, solishtirishni va ular orasidagi bog'liqliklarni bilib oladilar. Masalan, "Milliy istiqlol g'oyasini singdirish" asarlarini o'rganishda bu metoddan quyidagicha foydalanish mumkin. Buning uchun o'quvchilar guruhlariga ajratiladi va topshiriqlar beriladi. Birinchi guruhga "Mustaqillik bayrami", ikkinchi guruhga "Navro'z" bayrami solishtirish vazifasi topshiriladi. Bu metodni biz darsning boshida ham, o'rtsida ham, ohirida ham yoki bo'lim yuzasidan yakunlovchi dars o'tganimizda ham qo'llashimiz mumkin.

Mustaqillik bayrami	Navro'z bayrami
---------------------	-----------------

Bayram	Bayram
--------	--------

O'zbekiston mustaqillikni 1991-yil 21-martda nishonlanadi.

31-avgustda qo'lga kiritdi. Tun bilan kun teng bo'ladi.

1-sentyabrda nishonlanadi. Sumalak pishiriladi.

Ko'chalarda sayllar bo'ladi. Ko'kdan taomlar pishiriladi.

Hamma xursandchilik qiladi.

Yuqorida ko'rsatilgan metodlarning barchasini o'quvchilarning bilim saviyasiga qarab o'qish darslarida qo'llash mumkin. Bu metod va usullarni interfaol metodlar deb atalishiga sabab, ularning barchasini o'quvchilarni tanqidiy, tahliliy va ijodiy fikrlashga undaydi.

Xullas, interfaol metodlardan "Milliy istiqlol g'oyasi" haqidagi materiallarni o'rganishda foydalanish o'quvchilarning bu boradagi bilimlarini chuqurlashtirishga, fikrlash doiralarini kengaytirishga o'quvchilarning dars jarayonidagi faolligini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa albatta, o'qituvchining o'z ustida muntazam ishlashiga, ijodiy qobiliyatiga va ko'proq izlanishiga bog'liq.

O'qituvchi fikrlashga shay turgan o'quvchilarni oldiga muammoli savol qo'yib, uni aniqlashtirish, yechimini topishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov.I.A.Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch.-T.:”Ma'naviyat”, 2008.-176 bet
2. Karimov.I.A. Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta'minlash-bizning oliy maqsadimiz.-T:”O'zbekiston”,2009.-280 bet.
3. Mirziyoyev Sh. Xalqimizning roziligi bizning faolligimizga berilgan eng oliy bahodir Toshkent. O'zbekiston 2018-yil.
4. Akbarov A. Siz ham darsingizda o'yin tashkil qilasizmi? Ta'lim tafakkur jurnali. 2003-yil 1-son. 34-bet.
5. Mirzaabdullayeva M. Yangi pedagogic texnologiya . (ma'ruzalar matni). Namangan 2005-yil 118 bet
6. Saidahmedov N. S. Pedagogic amaliyotda yangi pedagogic texnologiyalarni qo'llash namunalari. RTM. 1999-yil
7. Sanaqulov X. Boshlang'ich ta'limda pedagogic texnologiyalarni o'ziga xos xususiyatlari. Maktab va hayot jurnali. 2003-yil 46-bet
8. Ibrohimov A., Sultonov X., Jo'rayev N. Vatan tuyg'usi. Toshkent. “O'zbekiston” nashriyoti. 1996-yil. 224 bet.
9. Ochil S. Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari. Toshkent. “O'qituvchi” nashriyoti. 1995-yil. 189 bet.
10. S. Matchonov. O'qish kitobi. 4-sinf. Toshkent. “Yangiyo'l poligraf servis” 2017-yil.

Internet ma'lumotlari:

11. Mavlonqulov H. va boshqalar. Yoshlar ma'naviy shakllanishida interfaol metodlardan foydalanish. Sirdaryo pedagogika kolleji. Ziyonet.uz
12. Olifer V. Olifer N. Novie texnologii v obuchenii. S.P.BXV-Sankt-Peterburg. 2000g

Mundarija:

I bob. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy istiqlol g'oyasi ruhida tarbiyalash	4
1.1 Boshlang'ich sinf o'quvchilariga milliy istiqlol g'oyasini singdirishning maqsad va vazifalari	4
1.2 Boshlang'ich sinf o'qish darsliklarida milliy istiqlol g'oyasini singdirish haqidagi asarlarning berilishi	11
II bob. 4-sinfda o'qish darslari orqali o'quvchilarga milliy istiqlol goyasini singdirish haqidagi asarlarni o'rganishning metodik asoslar.....	19
2.1 Milliy istiqlol g'oyasini singdirish haqidagi asarlarni o'rganish usullari	19
2.2 Boshlang'ich 4-sinf o'quvchilariga milliy istiqlol g'oyasi haqidagi tushunchalarni o'stirishda Prezident Sh.Mirziyoyev asarlaridan foydalanish	64
2.3 Milliy istiqlol g'oyasini sinhdirish haqidagi asarlarni o'rganishda interfaol metodlardan foydalanish	71
2.4 Foydalanilgan adabiyotlar	93